

МАТЕМАТИКА

8

A^2

B^2

2

A. AXATOV, F. MUZAFFAROVA, M. SAYDALIYEVA,
M. BARAKAYEVA

MATEMATIKA

*Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab
va maktab-internatlarning 8-sinf darsligi*

Ikkinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan*

«MAJBURIY NUSXA»

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2016

UO'K: 51:376(075.3)

KBK: 22.1

M31

Taqrizchilar: **M. Xamidova** – Nizomiy nomli TDPU dotsenti, p.f.n.;
M. Mirsoatova, N. Saydullayeva – Toshkent shahar
37-maxsus maktab o'qituvchilari

Darslikdagi pul muomalasiga doir mashqlarda narxlar shartli qabul qilingan.

Ushbu darslikdan o'quvchilarning bilish darajasi va imkoniyati hisobga olingan holda differentsial yondashib foydalanish tavsiya etiladi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi

A. Axatov va boshqalar.

Matematika. Yordamchi maktablarning 8-sinfi uchun darslik. Ikkinchi nashr. – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016. – 176 b.


UO'K: 51:376(075.3)

KBK: 22.1я72

ISBN 978-9943-4765-8-5

© «TALQIN» nashriyoti, 2008-y.

© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2016-y.






RAQAMLASH

OLTI XONALI SONLAR ICHIDA RAQAMLASH


Har bir inson hayotida matematikani bilish juda muhimdir. Qadim zamonlardan insonlar narsalarni sanaganlar, masofani o'lchaganlar, vaqtni aniqlaganlar. Hisoblashni amalga oshirishda turli vositalar, raqamlarni yozishdan foydalanganlar. Buyuk bobokalonimiz **Al-Xorazmiy** (783-yil Xivada tug'ilgan) o'zining «Hindcha hisob haqida»gi asarida sonlarning o'nlik sanoq sistemasi haqida va to'qqizta raqam va nol yordamida istalgan sonlarni tuzish mumkinligi va ular ustida to'rt amalning qo'llanishini tushuntirib berdi. Ushbu 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlarining yozilishi arablar tomonidan qo'llandi va butun dunyoga yoyildi. Ushbu raqamlar shuning uchun *arab raqamlari* deyiladi.



Bundan 2500 yil avval sonlar boshqa raqamlar bilan ifodalangan. Sonlarni yozishda rimliklar foydalangan raqamlar *rim raqamlari* deb nomlandi va undan foydalanish noqulayroq bo'lganligi sababli, amalda ko'proq arabcha raqamlar qo'llana boshladi.

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 arab raqamlari deb ataladi	I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X rim raqamlari deb ataladi
--	--

Sonlar qanday bo'lishini eslang:



1. a) Quyidagi sonlarni o'qing. Bu sonlar qanday sonlar deb ataladi? Har bir sondagi raqamlar sonini ayting.
9; 36; 149; 8000; 16001; 2010; 78100; 100000.
- b) Biz bilgan eng katta son 100000. Undan katta butun son mavjudmi?
- d) To'rt xonali, besh xonali sonlarni yozing va ularni taqqoslang.
2. Sonlarni taqqoslang. $>$, $<$ belgilaridan mosini qo'ying.

5392 ... 5391	52409 ... 52411	90720 ... 90702
60078 ... 60800	6789 ... 6099	32441 ... 32414
3. 1) Sinf va xona birliklarini eslang va jadvalni chizing.

Mingliklar sinfi			Birliklar sinfi		
Yuz minglar xonasi	O'n minglar xonasi	Minglar xonasi	Yuzlar xonasi	O'nlar xonasi	Birlar xonasi

- 2) Jadvalga xona birliklarini yozing: 1 000, 10 000, 100 000. Ular qaysi sinfga taalluqli?
- 3) Jadvalga xona birliklarini yozing: 1 ta birlik, 1 ta o'nlik, 1 ta yuzalik. Ular qaysi sinfga taalluqli?
- 4) Jadvaldagi sonlarni o'qing va daftaringizga yozing. Xona birliklarida raqam bo'lmasa, u qanday yoziladi?
- 5) Jadvaldagi sonlarni o'sib borish tartibida yozing.

Mingliklar sinfi			Birliklar sinfi		
Yuz minglar xonasi	O'n minglar xonasi	Mingliklar xonasi	Yuzlar xonasi	O'nlar xonasi	Birlar xonasi
			2		7
	1	2	6	3	1
1					
	8			2	



Yodda tuting! Agar sonning biror xonasida nol turgan bo'lsa, son o'qilganda shu xona nomi tushurib qoldiriladi, ya'ni o'qilmaydi.

4. Raqamlar yordamida sonlarni yozing:
 - yigirma ikki ming olti yuz yetmish;
 - ikki ming oltmish yetti; yigirma ming yigirma;
 - yigirma ikki ming ikki;
 - yigirma ming ikki yuz.

1 000 000 ICHIDA RAQAMLASH



Mingliklar va birliklar sinfidan tashqari yana sinflar mavjud bo'lib, mingliklar sinfidan tashqari millionlar sinfi ham jadvalda turadi. Unga 1.000.000 (**bir million**) soni misol bo'ladi.

5. 1) Har bir oldingi sondan keyingi sonni hosil qiling:
- 10 ming + 10 ming = 20 ming.
 - 20 ming + 10 ming = 30 ming.
 - 30 ming + 10 ming = ...
 - 40 ming + 10 ming = ...
 - 50 ming + 10 ming = ...
 - 60 ming + 10 ming = ...
 - 70 ming + 10 ming = ...
 - 80 ming + 10 ming = ...
 - 90 ming + 10 ming = 100 ming.
- 2) Jadvaldagi sonlarni o'qing. O'zgarishlar qayerdaligini toping.

Mingliklar sinfi			Birliklar sinfi		
Yuz minglar	O'n minglar	Minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
1	0	0	0	0	0
2	0	0	0	0	0
3	0	0	0	0	0
4	0	0	0	0	0
5	0	0	0	0	0
6	0	0	0	0	0

7	0	0	0	0	0
8	0	0	0	0	0
9	0	0	0	0	0

3) 100 mingdan qo'shib, hisoblang:

$$100 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = 200 \text{ ming.}$$

$$200 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = 300 \text{ ming.}$$

$$300 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$400 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$500 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$600 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$700 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$800 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = \dots$$

$$900 \text{ ming} + 100 \text{ ming} = 1000 \text{ ta ming} = 1 \text{ million (1 mln).}$$

6. Bir million sonini jadvalga yozish uchun jadvalga chap tomondan millionlar sinfini qo'shamiz.

Millionlar sinfi			Minglar sinfi			Birlar sinfi		
Yuz million-lar	O'n million-lar	Bir million-lar	Yuz ming-lar	O'n ming-lar	Bir ming-lar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
		1	0	0	0	0	0	0

– Jadvalga qaysi son yozilgan?

– Bu son nechta raqamdan iborat?

– Bu son qaysi sinfga kiradi?

7. Ushbu sonlardan keyin keladigan sonlarni ayting: 9, 99, 999, 9999, 99999, 999999,



Yodda tuting! 999999 sonidan so'ng million soni keladi. Bu son bunday yoziladi: 1 000 000.
Mingta ming – bu bir millionni tashkil qiladi.

8. Yozing:

100 ming – 100 000

200 ming – 200 000

— — — — —

— — — — —

1000 ming – 1 000 000

9. Quyidagi sonlarni raqamlar bilan yozing:

a) 4 ming. – 4000

20 ming.

500 ming.

b) 235 ming 600 bir. – 235 600

143 ming 401 bir.

523 ming 320 bir.

d) 15 ming 8 bir. – 15008

40 ming 106 bir.

700 ming 90 bir.

e) 240 ming 5 bir. – 240005

600 ming 600 bir.

503 ming 28 bir.

10. 1) Sonlarni o'qing, har bir sonning xona birliklarini aniqlang va ularni quyidagicha sinflarga ajrating:

$\overbrace{600}^{\text{ming}} \overbrace{000}^{\text{yuz}}$; 207 132; 160 200; 327 002; 327020; 32 700
quyidagi sonning xona birliklarini.

2) 5 yuz ming, 4 ta o'n ming, 3 ta ming – $\overbrace{543}^{\text{ming}} \overbrace{000}^{\text{yuz}}$
6 yuz ming, 8 ta ming, 5 ta yuz, 3 ta o'n
9 yuz ming, 5 ta o'nlik, 9 ta birlik.

11. Xona birliklari yig'indisini hosil qiling:

Namuna:

$$300\,000 + 20\,000 + 8\,000 + 100 + 40 + 5 = 328\,145$$

8 raqami qaysi sinf, qaysi xona birligini tashkil etmoqda?

$$400\,000 + 80\,000 + 6\,000 + 20 + 7 =$$

$$50\,000 + 8\,000 + 300 + 1 =$$

$$20\,000 + 60 =$$

$$70\,000 + 30\,000 + 5\,000 =$$

$$100\,000 + 50\,000 + 800 + 30 =$$

12. Qo'shiluvchilar qatoridagi yetishmayotgan xona birliklarini toping.

a) $27183 = 20\,000 + 7\,000 + \dots + \dots + 3$

$$85\,609 = 80\,000 + \dots + \dots + \dots$$

$$30\,724 = \dots + 700 + \dots + \dots$$

b) $150\,643 = 100\,000 + \dots + 600 + \dots + \dots$

$$321\,809 = 300\,000 + 20\,000 + \dots + \dots + 9$$

$$503\,140 = 500\,000 + \dots + \dots + 40$$

$$702\,050 = \dots + 2000 + \dots$$

$$300\,007 = \dots + \dots$$

$$440\,300 = \dots + \dots + 300$$

13. Yig'indini toping. Kerakli joylarda qo'shiluvchilar o'rnini almashtiring.

$$7\,000 + 206$$

$$6\,002 + 340$$

$$630 + 2\,001$$

$$19 + 8\,400$$

$$4\,040 + 805$$

$$28 + 5\,100$$

$$4\,000 + 137$$

$$3\,700 + 4$$

$$4 + 6\,020$$

14. Ayirmani toping:

3 245–3 000	8 735–5	4 341–301
2 106–106	6 320–6 300	4 213–10
8 492–400	4 853–853	5 687–5 087

15. Sonlarni taqqoslang, >, < belgilaridan mosini qo'ying:

301 312 ... 98 999	99 998 ... 100 000
400 600 ... 195 800	10 000...800 407
100 000 ... 60 000	524 000 ... 52 400
270 835 ... 2 079 000	603 010 ... 630 010

16. Sonlarni o'qing. Qatordagi eng katta sonlarni ayting, ularni kamayib borish tartibida yozing:

- a) 285 324; 689 000; 139 498;
- b) 500 207; 303 003; 50 899; 505 000;
- d) 600 000; 932 480; 93 845; 660 00.

17. Sonlarni o'qing. Qatordagi eng kichik sonni ayting, ularni ortib borish tartibida yozing:

- a) 998; 9 900; 99; 100 000;
- b) 100 010; 11 001; 101 000; 10 100;
- d) 40 400; 40 004; 44 000; 400 000.

18. Qo'shib sanang va yozing:

25, ...;	...;	...;	...;	...;	200;
250, ...;	...;	...;	...;	...;	2000;
2500, ...;	...;	...;	...;	...;	20 000;

5 000 ...; ...; ...; ...; ...; 200 000;
 50 000 ...; ...; ...; ...; ...; 1 000 000.

19. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
 4 378, 59 793, 161 210, 193 003, 290 001.

20. Omborga birinchi kuni 250000 kg, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 8000 kg ortiq bug'doy keltirildi. Omborga shu ikki kunda necha kilogramm bug'doy keltirilgan?

21. Sonlarni o'qing: 34980, 404616, 810243. Birinchi va ikkinchi sinf xona birliklarini ayting.

22. Ustunlardagi sonlar qanday o'zgardi?

Qaysi xona birligi qo'shib yozildi?

998	420 998	249 998	699 998	999 998
999	420 999	249 999	699 999	999 999
<u>1000</u>	<u>421 000</u>	<u>250 000</u>	<u>700 000</u>

23. Ustundagi son tagiga ortib borish tartibida ikkitadan son yozing:

9 998	39 998	401 998
.....
.....
349 998	500 998	204 098
.....
.....

- 24.** Kamayib borish tartibida yozing:
- 10 taga kamaytiring: 1 340, 1 330, ..., ...;
 - 100 taga kamaytiring: 82 356, ..., ...;
 - 1000 taga kamaytiring: 82 356, ..., ...;
 - 10000 taga kamaytiring: 82 356, ..., ...;
 - 100000 taga kamaytiring: 823 560, ..., ...
- 25.** Qo'shni sonlarni yozing:
- | | | |
|--------------------|---------------------|---------------------|
| ..., 1 610, | ..., 3 000, | ..., 19 999, |
| ..., 20 009, | ..., 759 999, | ..., 310 000, |
- 26.** Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:
- 275 952, 610 534, 199 850, 145 345.
- 27.** Sonlarni o'qing: 64 791, 401 616, 510 452. Birlar sinfining ostiga bitta, minglar sinfining ostiga ikkita chiziqcha chizing.
- 28.** Berilgan sonlarni o'sish tartibida yozing:
- 5 861, 67 845, 979 611, 39 488, 851 109.
- 29.** Ushbu sonlarni raqamlar bilan yozing:
- besh yuz to'qson to'qqiz;
 - sakkiz yuz ming qirq ikki;
 - yetti ming oltmish sakkiz;
 - ellik besh ming yetmish yetti.

30. Xona birliklari yig'indisi bo'yicha sonni yozing:

Namuna:

$$100\,000 + 50\,000 + 3\,000 + 600 + 20 + 5 = 153\,625$$

$$30\,000 + 600 + 50 + 4$$

$$90\,000 + 9\,000 + 80 + 4$$

$$70\,000 + 4\,000 + 500 + 50$$

$$300\,000 + 40\,000 + 1$$

$$500\,000 + 2\,000 + 600 + 60 + 9$$

$$90\,000 + 800 + 7$$

31. Jadvalni ko'rib chiqing va unda yozilgan sonlarni o'qing.

3-sinf – millionlar sinfi			2-sinf – minglar sinfi			1-sinf – birlar sinfi		
Xonalar								
9	8	7	6	5	4	3	2	1
yuz mlnlar	o'n mlnlar	bir mlnlar	yuz minglar	o'n minglar	bir minglar	yuz-lar	o'nlar	birlar
						1	2	5
					3	6	1	5
				7	8	9	0	1
			8	9	1	0	0	0
		1	0	0	0	0	0	0

Jadvaldagi bir raqamlari qaysi xona birligini bildiradi?

32. Sonni to'g'ri o'qish uchun uni sinflarga ajratib yozing:

Masalan, $\overbrace{27\,740}$, $\overbrace{740\,065}$:

35 938

175 036

80 032

300 082

232 729

800 396

342 402

809 003

807 013

390 014

464 342

1 000 000

Bu sonlarning har biri qaysi sinfga tegishli va unda qaysi xonalar borligini ayting.

33. Quyidagi sonlarni yozing:

Namuna: 4 ta ming, 8 ta yuz, 5 ta bir – 4805.

5 ta ming, 7 ta yuz, 8 ta o'n, 3 ta bir

6 ta o'n ming, 8 ta ming, 5 ta yuz, 7 ta bir

3 ta ming, 6 ta yuz, 7 ta o'n, 4 ta bir

9 ta yuz ming, 8 ta bir

34. Sonlarni xona qo'shiluvchilariga ajrating:

Namuna: $37\,625 = 30\,000 + 7\,000 + 600 + 20 + 5$

58 693

285 170

175 602

400 500

272 194

290 180

907 005

978 060

35. Sonlarni xona birliklari yig'indisi ko'rinishida yozing:

45 164

594 608

173 507

57 800

19 650

74 024

24 004

500 134

7 890

340 810

701 502

400 029

36. 2947 dan 2951 gacha, 15409 dan 15415 gacha, 706896 dan 706901 gacha natural sonlarni yozing.

37. Taqqoslang, $>$, $=$, $<$ belgilaridan mosini qo'ying:

95 000...9 546

375 148...375 148

7 254...7 354

40 800...40 080

15 130...15 030

54 600...54 060

34 000...34 000

72 009...72 090

38. Quyidagi sonlarni xona qo'shiluvchilariga ajrating:

Namuna: $803 = 800 + 3$

53709	50060	930001
302704	500490	700458
498675	840030	876540

39. Eng katta ikki xonali sonni yozing.
 Eng katta uch xonali sonni yozing.
 Eng katta besh xonali sonni yozing.
 Eng katta olti xonali sonni yozing.

RIM RAQAMLARI

40. Yangi yil, Vatan himoyachilari kuni, Konstitutsiya kuni, Navro'z bayrami kunlarini rim raqamlari bilan ifodalang.

41. a) Quyidagi sonlarni rim raqamlari bilan yozing:
 1, 4, 3, 8, 5, 6, 10, 9, 15, 17, 14, 20, 22, 25, 23, 29, 30, 35.

b) Oylarni rim raqamlari bilan yozing.

d) Sonlarni tartib bilan yozing:

VII, X, IX, V, IV, III, VI, XIII, XXV, XXX

42. Cho'plarning o'rnini almashtirish bilan to'g'ri tenglik hosil qiling: $XIII = VIII + V$ $VII = V + II$

43. Quyidagi sonlarni rim raqamlari bilan yozing:

10; 5; 15; 9; 19; 29; 7; 17; 11; 23; 16; 8; 12; 30; 34.

KALKULATOR BILAN ISHLASH

Sonni kalkulatorlarda yozish uchun yuqori xona birligidan boshlab ushbu sondagi barcha raqamlar tartib bilan teriladi.

Masalan: kalkulatorlarda 280139 ni yozish uchun raqamlar yozilgan tugmalarni quyidagi ketma-ketlikda terish kerak:

2 **8** **0** **1** **3** **9**



Kalkulatorlarda boshqa sonni terish uchun kalkulator tablosidan oldingi son o'chirib tashlanadi. Sonni o'chirish **C** tugmani bosish bilan amalga oshiriladi.

Ko'p turdagi kalkulatorlarda **C** tugma qizil rang bilan ajratilgan bo'ladi. Sonni o'chirish uchun ba'zi kalkulatorlarda

C/AC yoki **AC** belgili tugmalardan foydalaniladi.

44. Kalkulatorlarda quyidagi sonlarni tering:

- 1) 1 245; 30 000; 805 006; 900 000; 350 35; 1 000 000
- 2) Kalkulator tablosidagi har bir sonni o'qing:

680 000 **82 000** **100 100** **211 132** **423 000**


45. Kalkulatorlarda quyidagi sonlarni tering va o'qing:

- | | |
|------------|------------|
| 1 o'nlik | 1 o'n ming |
| 1 yuz ming | 1 yuz |
| 1 ming | 1 million |



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. 289145; 360207 sonlarini xona qo'shiluvchilariga ajrating.
2. Xona qo'shiluvchilaridan son hosil qiling:
 $500\ 000 + 60\ 000 + 7\ 000 + 300$
 $800\ 000 + 3\ 000 + 100 + 20 + 7$
3. Sonlarni tartib bilan:
 697 997 dan 698 002 gacha bir birlik qo'shib;
 532 600 dan 633 000 gacha yuztadan qo'shib yozing.
4. Quyidagi sonlardan oldin va keyin keladigan sonlarni yozing:
 $\dots, 145\ 279, \dots$; $\dots, 100\ 000, \dots$;
 $\dots, 803\ 450, \dots$; $\dots, 403\ 001, \dots$
5. Sonlarni taqqoslang:
 $359\ 680 \dots 350\ 690$; $603\ 407 \dots 604\ 000$;
 $108\ 002 \dots 108\ 200$; $100\ 000 \dots 999\ 999$.
6. Qatordagi sonlar nechtaga kamayyapti?
 $247\ 500$; $247\ 250$; $247\ 000$; $246\ 750$; $246\ 500$.
7. $609\ 000$ soni $600\ 000$ dan nechtaga katta?
 10 soni $1\ 000$ dan nechtaga kichik?
8. Quyidagi xona birliklaridan iborat bo'lgan sonlarni yozing:
 3 yuz ming 5 o'n ming 8 yuz =
 5 yuz 6 o'n 9 bir =
 3 yuz ming 4 ming 5 yuz 3 o'n =
 9 o'n ming 8 yuz 5 bir =





KO'P XONALI SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

SONLARNI OG'ZAKI QO'SHISH VA AYIRISH

46. Qo'shish va ayirishda hosil bo'lgan sonlar nima deb ataladi?

Misollarni ko'ring. Yig'indi va ayirmani o'qing.

$$12\,000 + 15\,000 = 27\,000$$

$$630\,000 - 120\,000 = 510\,000$$



Besh xonali, olti xonali sonlarni og'zaki qo'shish va ayirish to'rt xonali sonlar kabi yuqori sinf xona birligidan boshlab bajariladi.

47. Misollarni yeching:

$4\,600 + 2\,100$

$5\,400 - 2\,100$

$280\,000 - 130\,000$

$52\,000 + 13\,000$

$54\,000 - 21\,000$

$487\,000 + 200\,000$

$27\,000 + 11\,000$

$54\,000 - 21\,000$

$580\,000 + 110\,400$

$70\,000 + 20\,000$

$38\,000 - 12\,000$

$169\,000 - 69\,000$

48. Qo'shishni yeching:

$450 + 550$

$250 + 400 + 350$

$1\,325 + 275 + 250$

$525 + 175$

$450 + 450 + 55$

$115 + 685 + 160$

$830 + 170$

$750 + 25 + 125$

$92\,425 + 350 + 150$

$8\,635 + 26$

$540 + 360 + 100$

$560 + 140 + 273$

49. Ayirishni og'zaki yeching:

$500 - 350$

$600 - 120$

$700 - 366$

$1000 - 270$

$820 - 230$

$750 - 170$

$830 - 440$

$610 - 260$

$200 - 135$

$800 - 263$

$453 - 60$

$523 - 80$

50. Ko'rsatilgan ishoraga ko'ra qo'shish va ayirishga doir misollar tuzing:

$$\begin{array}{r} 28600 \\ 149300 \end{array} \begin{array}{l} \swarrow \searrow \\ \nwarrow \swarrow \end{array} \begin{array}{r} 130300 \\ 11000 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 43070 \\ 27000 \end{array} \begin{array}{l} \swarrow \searrow \\ \nwarrow \swarrow \end{array} \begin{array}{r} 51000 \\ 3000 \end{array}$$

KALKULATOR YORDAMIDA QO'SHISH VA AYIRISH

51. Qo'shish va ayirishni kalkulator yordamida bajaring:

$27000 + 12000$

$193200 - 101000$

Amallarni kalkulatorida bajarish tartibi:

1) Amaldagi birinchi son kalkulatorida teriladi;

2) Misoldagi ishoraga ko'ra kalkulatoridagi $\boxed{+}$ yoki

$\boxed{-}$ tugmachasi bosiladi;

$27000 \boxed{+} 12000 \boxed{=}$

3) Amaldagi ikkinchi son teriladi;

$193200 \boxed{-} 101000 \boxed{=}$

4) $\boxed{=}$ tugmachasi bosiladi.

Tabloda yechilgan misol natijasi hosil bo'ladi.

52. Misollarni avval og'zaki yeching va natijasini daftarin-gizga yozing, so'ng misol yechimi to'g'riligini kalkulator orqali tekshiring:

$28 + 64$	$24\ 000 + 3\ 000$	$430\ 000 + 320\ 000$
$82 - 35$	$78\ 000 - 36\ 000$	$605\ 000 - 600\ 000$
$6\ 400 - 5\ 100$	$90\ 700 + 5\ 003$	$784\ 073 - 84\ 003$

53. Misollarni kalkulatorida yeching:

$3\ 282 + 1\ 364$	$12\ 546 + 21\ 687$	$4\ 235 - 2\ 128$
$2\ 785 + 6\ 209$	$48\ 693 + 36\ 577$	$3\ 716 - 1\ 025$
$9\ 430 + 8\ 691$	$30\ 028 + 69\ 972$	$9\ 839 - 3\ 927$
$6\ 264 + 1\ 367$	$53\ 915 + 27\ 196$	$5\ 645 - 4\ 278$
$21\ 435 - 12\ 372$	$38\ 643 - 25\ 936$	$72\ 105 - 25\ 203$

54. Misollarni og'zaki yeching, natijasini kalkulatorida tekshiring:

a) $2\ 005 + 60\ 000 + 31\ 500$	$250 + 380\ 000 + 7\ 000$
$38\ 000 + 24\ 000 + 27$	$530\ 000 + 240\ 000 + 123$
b) $68\ 395 - 95 - 8\ 000$	$387\ 637 - 30 - 300\ 000$
$57\ 000 - 7\ 000 - 50\ 000$	$970\ 000 - 60\ 000 - 300\ 000$
d) $3\ 189 + 321 + 5\ 067$	$3\ 706 - 2\ 859 - 508$
$8\ 253 + 1\ 042 + 596 + 39$	$6\ 021 - 3\ 950 - 178$

SONLARNI USTUN USULIDA QO'SHISH

Olti xonali sonlarni ustun usulida qo'shish to'rt va besh xonali sonlarni ustun usulida qo'shish kabi bajariladi.

Eslang: Yig'indi ustun usulida yechilsa, qo'shish amali qaysi xona birligidan boshlanadi?

458 067 + 312 838

Yig'indi ustun usulida quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$\begin{array}{r} 458\ 067 \\ + 312\ 838 \\ \hline 770\ 905 \end{array}$$

1-qadam. Birliklar qo'shiladi

2-qadam. O'nliklar qo'shiladi

3-qadam. Yuzliklar qo'shiladi

4-qadam. Mingliklar qo'shiladi

5-qadam. O'n mingliklar qo'shiladi

6-qadam. Yuz mingliklar qo'shiladi

Demak, $458\ 067 + 312\ 838 = 770\ 905$



Yodda tuting: Qo'shiluvchilarning o'rne almashtirilsa, yig'indi o'zgarmaydi.

55. Yig'indini toping:

$628\ 465 + 258\ 568$

$350\ 006 + 483\ 084$

$517\ 787 + 85\ 035$

$787\ 400 + 86\ 850$

$$\begin{array}{r} 70\,800 + 230\,506 \\ 400\,896 + 70\,164 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 70\,080 + 209\,400 \\ 184\,909 + 346\,791 \end{array}$$

56. Namangan viloyati sihatgohida o'tgan yili 24 185 nafar, bu yil esa unga qaraganda 7 496 nafar ortiq kishi dam oldi. Ikki yil davomida necha nafar kishi dam oldi?

57. Misollarni namuna asosida yeching:

$$\begin{array}{r} 25068 \\ + 9630 \\ \hline 342 \\ \hline 35040 \end{array}$$

$$542 + 25\,088 + 9\,630$$

$$67\,283 + 594 + 8\,637$$

$$543 + 8\,607 + 25\,049$$

$$3\,649 + 54\,187 + 36 + 5\,406$$

$$5\,610 + 182 + 42 + 518\,901$$

$$623 + 4\,250 + 71 + 546\,049$$

58. Parrandachilik fermasida 665 ta xo'roz va undan 23 006 ta ortiq tovuqlar bor. Fermada jami nechta parranda bor?

59. Yig'indini toping. Qo'shiluvchilar o'rinlarini almashtiring va misollarni yeching:

$$631\,169 + 115\,112$$

$$539\,111 + 400\,001$$

$$810\,052 + 100\,001$$

$$735\,006 + 123\,123$$

$$454\,437 + 362\,223$$

$$114\,453 + 449\,981$$

Chiqqan yig'indilar haqida nima deyish mumkin?

60. Shaxmat musobaqalari g'oliblari uchun shahar hokimiyati tomonidan I o'ringa 250 500 so'm, II o'ringa 200 000 so'm, III o'ringa esa 150 500 so'm pul mukofoti ajratildi. Uchta o'ringa hammasi bo'lib necha so'm pul ajratildi?

SONLARNI USTUN USULIDA AYIRISH

Eslang:

- a) Ayirishda qatnashayotgan sonlar qanday nom bilan ataladi?
- b) Ayirishda hosil bo'lgan son nima deb ataladi?
- d) Olti xonali (ko'p xonali) sonlarni ustun usulida ayirish to'rt va besh xonali sonlarni ustun usulida ayirish kabi bajariladi. Ayirma ustun usulida yechilsa, ayirish amali qaysi xona birligidan boshlanadi?

658645 – 475293



Ayirma ustun usulida quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{6}58\overset{\cdot}{6}45 \\ - 475293 \\ \hline 183352 \end{array}$$

1-qadam. Birliklar ayiriladi

2-qadam. O'nliklar ayiriladi

3-qadam. Yuzliklar ayiriladi

4-qadam. Mingliklar ayiriladi

5-qadam. O'n mingliklar ayiriladi

6-qadam. Yuz mingliklar ayiriladi

Demak, $658645 - 475293 = 183352$

61. Ayirmani toping:

Namuna:	$174\,546 - 98\,063$	$874\,625 - 146\,297$
	$435\,482 - 302\,165$	$432\,548 - 36\,685$
	$362\,581 - 150\,365$	$624\,735 - 89$
	$134\,761 - 9\,468$	$512\,642 - 8\,056$

62. Misollar yechimini namunalar asosida tushuntiring:

$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{6}00000 \\ - 124527 \\ \hline 475473 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{3}10900 \\ - 216073 \\ \hline 94827 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{7}10010 \\ - 54235 \\ \hline 655775 \end{array}$
---	--	--

63. Uy qurilishiga ertalab 28480 ta, kechqurun undan 10725 ta kam g'isht keltirildi. Bir kunda hammasi bo'lib nechta g'isht keltirildi?

64. Misollarni yeching:

$\begin{array}{r} 348\,256 \\ - 154\,132 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 671\,986 \\ - 542\,774 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 435\,268 \\ - 221\,300 \\ \hline \end{array}$	$\begin{array}{r} 843\,468 \\ - 251\,282 \\ \hline \end{array}$
---	---	---	---

65. Bir issiqxonada 150 500 ta pomidor ko'chati, ikkinchi issiqxonada esa unga qaraganda 70 250 ta kam bulg'ori qalampir ko'chati sotuvga chiqarildi. Hammasi bo'lib necha tup ko'chat sotuvga chiqarildi?

66. Qaysi misollarda xatoliklarga yo'l qo'yilgan? To'g'rilab yeching:

$\begin{array}{r} \text{a) } 42030 \\ - 38764 \\ \hline 4376 \end{array}$	$\begin{array}{r} \text{b) } 70543 \\ - 64700 \\ \hline 5843 \end{array}$	$\begin{array}{r} \text{d) } 470310 \\ - 341963 \\ \hline 128347 \end{array}$	$\begin{array}{r} \text{e) } 801605 \\ - 643809 \\ \hline 167695 \end{array}$
---	---	---	---



Eslang!

Agar ayirmaga ayriluvchi qo'shilsa, kamayuvchi hosil bo'ladi:

$\begin{array}{r} 470310 \\ - 341963 \\ \hline 128347 \end{array}$	$\begin{array}{r} 128347 \\ + 341963 \\ \hline 470310 \end{array}$
--	--

67. Toshkent bilan Buxoro shaharlari orasidagi masofa 651 km. Poyezd 301 km yo'l bosgan bo'lsa, yana necha kilometr yo'l yurishi kerak?

68. Misollarni yeching. Ayirma to'g'riligini qo'shish bilan tekshiring:

Namuna:		
$\begin{array}{r} 800915 \\ - 200275 \\ \hline 600640 \end{array}$	$\begin{array}{r} 600640 \\ + 200275 \\ \hline 800915 \end{array}$	$682005 - 518972$
		$385100 - 4351$
		$710057 - 183149$
		$157000 - 132439$

69. Oyoq kiyim qo'shma korxonasida 300 000 juft krossovka ishlab chiqildi. Uning 120 680 jufti erkaklar krossovkalari, unga qaraganda 14 096 juft kam bolalar krossovkalari,

qolganlari esa ayollar krossovkalaridir. Qo'shma korxonada ayollar krossovkalaridan necha juft ishlab chiqdi?

70. Misollar yechimidagi xatolarni toping va to'g'rilang:

$$\begin{array}{r|l} + \begin{array}{r} 539 \\ 225 \\ \hline 755 \end{array} & + \begin{array}{r} 67700 \\ 5843 \\ \hline 63543 \end{array} \\ \hline & - \begin{array}{r} 42030 \\ 38764 \\ \hline 3276 \end{array} \\ & - \begin{array}{r} 864804 \\ 234739 \\ \hline 630165 \end{array} \end{array}$$

71. To'qimachilik korxonasida birinchi kuni 216850 ta ip o'rami o'raldi. Ikkinchi kuni esa 9070 ta kam ip o'rami tayyorlandi. Uchinchi kuni esa ikkinchi kundagiga qaraganda 500 ta ko'p ip o'rami o'raldi. Uch kunda hammasi bo'lib necha o'ram ip o'raldi?

72. Ayirmani toping:

a) $486\,595 - 323\,804$ $968\,015 - 98\,405$
 $742\,600 - 58\,340$ $154\,200 - 76\,090$
 $230\,454 - 199\,804$ $93\,100 - 92\,906$

b) $350\,070 - 38\,007$ $804\,300 - 75\,045$
 $567\,180 - 37\,065$ $520\,408 - 176\,816$
 $200\,000 - 38\,602$ $100\,013 - 96\,708$

73. Misollar tuzing va amallarni bajaring:

a) $42\,578$ ni $6\,735$
 $8\,204$ ni $817\,789$
 $85\,085$ ni $18\,040$
 $235\,005$ ni $3\,796$

ta orttiring

- b) 62000 ni 3408
 95003 ni 75032
 127005 ni 3793
 405100 ni 89109

ta kamaytiring

74. Chimyon dam olish bazasida 1215 nafar turist dam olmoqda. Dam olish kuni ular safi 2000 taga yetdi. Dam olish kuni necha nafar turist kelib qo'shilgan?

75. Ustun shaklida yozib hisoblang:

$$628465 + 258568$$

$$350006 + 483084$$

$$517787 + 85035$$

$$787400 + 86850$$

$$70800 + 230506$$

$$7080 + 209400$$

$$400896 + 70164$$

$$184909 + 346791$$

76. Sport inshooti qurish uchun 12340 ta beton g'isht keltirildi. Bir oydan so'ng yana 8609 ta beton g'isht keltirildi. Ikkinchi oyda birinchi oydagiga qaraganda nechta kam beton g'isht keltirildi?

77. Ayirmani toping:

$$486595 - 329804$$

$$968015 - 98405$$

$$742600 - 58340$$

$$154200 - 76090$$

$$230454 - 199804$$

$$93100 - 92906$$

$$350070 - 38007$$

$$804300 - 75045$$

$$567180 - 37065$$

$$520408 - 176816$$

$$200000 - 38602$$

$$100013 - 96708$$

- 78.** Sonlarni taqqoslang. $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:
- | | |
|-------------------|-------------------|
| 162 ... 999303 | 803010 ... 170016 |
| 6489 ... 546405 | 520003 ... 298045 |
| 273182 ... 164090 | 5273 ... 68009 |
- 79.** Amallarni bajarish tartibiga ko'ra misollarni yeching:
- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| 400896 + (70165 + 986) | 35700 - (4705 + 1397) |
| 400000 - (48602 - 14728) | 42073 - (9389 + 1754) |
| 52368 + (287905 + 1445) | 28005 - (7101 + 2978) |
| 200013 - (96807 - 9995) | 184906 + (347619 + 7309) |
- 80.** Xo'jalik davlatga shartnoma asosida 3350 tonna paxta topshirishi kerak edi. Avval 3600 tonna, keyin yana 90 tonna paxta topshirildi. Xo'jalik davlatga shartnomadagidan necha tonna ortiq paxta topshirgan?
- 81.** Oртtiring:
- | | |
|-------------------|-------------------|
| 42578 ni 6785 ta | 235005 ni 3793 ta |
| 8204 ni 817789 ta | 162 ni 999303 ta |
| 85085 ni 18040 ta | 6489 ni 546405 ta |
- 82.** Bosmaxona 150000 nusxada darslik chop etdi. Dastlab 62450 nusxa darslik, so'ng yana shuncha darslik maktablarga tarqatildi. Bosmaxonada yana nechta darslik qoldi?
- 83.** Kamaytiring:
- | | |
|-------------------|---------------------|
| 62000 ni 3408 ta | 405100 ni 89100 ta |
| 95003 ni 75032 ta | 803010 ni 170016 ta |
| 127005 ni 3793 ta | 520003 ni 298045 ta |

84. Qo'shma korxonada 340 930 juft paypoq to'qildi. Shundan 196854 jufti bolalar paypoqlari, qolganlari erkaklar paypoqlaridir. Qaysi paypoq turi ko'p to'qilgan va nechtaga ko'p to'qilgan?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. To'qimachilik korxonasida sentabr va oktabr oylarida 81560 m gazlama to'qildi. Shundan 53 025 metri shoyi va qolganlari atlas gazlamadir. Atlasga qaraganda shoyi necha metr ko'p to'qilgan?
2. Misollarni yeching va natijalar to'g'riligini tekshiring:

$203759 + 176457$	$389104 - 283563$
$28416 + 720695$	$173260 - 48518$
3. Yosh oila kreditdan olgan puliga 80190 so'mlik chang-yutgich, undan 25845 so'm qimmatiga kir yuvish mashinasi va 3965 so'mga choynak sotib oldi. Yosh oila kreditga necha so'm pul olgan?
4.

$57291 + 25349$	$58426 - 16504$
$36457 + 5624$	$82054 - 7265$



KO'P XONALI SONLARNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

85. 1) Ko'paytmani toping (og'zaki):

$3 \cdot 5$	$23 \cdot 3$	$120 \cdot 4$	$15 \cdot 2$
$300 \cdot 5$	$230 \cdot 3$	$1200 \cdot 4$	$150 \cdot 2$

2) Bo'linmani toping:

$14 : 2$	$46 : 2$	$100 : 5$	$630 : 3$
$140 : 2$	$460 : 2$	$1000 : 5$	$960 : 3$

86. Misollarni yeching (og'zaki):

1) $112 \cdot 4$	$5000 \cdot 3$	$800 \cdot 4$	$361 \cdot 2$
$106 \cdot 2$	$24000 \cdot 2$	$702 \cdot 3$	$405 \cdot 1$
$250 \cdot 2$	$12300 \cdot 3$	$811 \cdot 2$	$203 \cdot 3$
2) $2488 : 2$	$800 : 4$	$360 : 6$	$1000 : 2$
$8600 : 2$	$2400 : 8$	$408 : 4$	$1000 : 4$
$5000 : 5$	$728 : 8$	$900 : 9$	$1000 : 5$

87. Nol bilan tugagan yaxlit sonlarga ko'paytirishni eslang:

$16 \cdot 10$	$20 \cdot 100$	$10 \cdot 607$	$800 \cdot 0$
$287 \cdot 100$	$100 \cdot 10$	$1000 \cdot 39$	$926 \cdot 100$
$53 \cdot 1000$	$801 \cdot 1000$	$100 \cdot 100$	$1000 \cdot 1$
$8041 \cdot 100$	$10 \cdot 6302$	$500 \cdot 10$	$10 \cdot 2070$

88. Nol bilan tugagan yaxlit sonlarga bo'lishni eslang:

$740 : 10$	$13800 : 10$	$70000 : 1000$
$7800 : 100$	$75300 : 100$	$83700 : 10$
$35000 : 1000$	$10000 : 1000$	$28800 : 100$

89. Yaxlit o'nlik, yuzlik, mingliklarga ko'paytirishni eslang:

$560 \cdot 30$

$125 \cdot 50$

$17 \cdot 500$

$12 \cdot 3000$

$500 \cdot 60$

$75 \cdot 30$

$24 \cdot 300$

$82 \cdot 4000$

$120 \cdot 40$

$130 \cdot 50$

$210 \cdot 400$

$15 \cdot 2000$

90. Yaxlit o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lishni eslang:

$640 : 20$

$7200 : 800$

$54000 : 9000$

$960 : 30$

$1200 : 400$

$64000 : 2000$

$770 : 70$

$4500 : 500$

$32000 : 4000$

$630 : 70$

$9000 : 900$

$15000 : 5000$

91. 1) Ko'p xonali sonlarni bir xonali songa, yaxlit o'nliklarga va ikki xonali sonlarga ko'paytirishni taqqoslang:

$$\begin{array}{r} 7032 \\ \times \quad 5 \\ \hline 35160 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 7032 \\ \times \quad 50 \\ \hline 351600 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 7032 \\ \times \quad 53 \\ \hline 21096 \\ + 35160 \\ \hline 372696 \end{array}$$

Ko'p xonali sonlarni ikki xonali songa ko'paytirish qoidasini eslang.

2) Ko'paytmani toping:

$8326 \cdot 3$

$7214 \cdot 8$

$212180 \cdot 4$

$341726 \cdot 2$

$3200 \cdot 5$

$8720 \cdot 6$

$113600 \cdot 7$

$117800 \cdot 5$

$6070 \cdot 6$

$60090 \cdot 7$

$320070 \cdot 3$

$110070 \cdot 9$

3) Misollarni yeching:

$28 \cdot 34$	$447 \cdot 68$	$976 \cdot 45$	$1234 \cdot 29$
$35 \cdot 18$	$254 \cdot 40$	$9007 \cdot 60$	$40927 \cdot 43$
$68 \cdot 70$	$109 \cdot 72$	$1148 \cdot 30$	$50409 \cdot 19$
$96 \cdot 77$	$453 \cdot 35$	$1089 \cdot 27$	$62300 \cdot 45$

92. Fermer kartoshka hosilini yig'ib olib, har biri 75 kg li 45 ta qop va har biri 52 kg li 19 ta qopni shaharga sotishga jo'natdi. Fermer necha kilogramm kartoshka yig'ib olgan?

93. 1) Ko'p xonali sonlarni bir xonali songa, ikki xonali songa bo'lish qoidasini eslang. Bo'lish qaysi xona birligidan boshlanadi?

$\begin{array}{r} 9030 \\ - 7 \\ \hline 20 \\ - 14 \\ \hline 63 \\ - 63 \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 7 \\ \hline 1290 \end{array}$	$\begin{array}{r} 6720 \\ - 630 \\ \hline 420 \\ - 420 \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 70 \\ \hline 96 \end{array}$	$\begin{array}{r} 399600 \\ - 370 \\ \hline 296 \\ - 296 \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 74 \\ \hline 5400 \end{array}$
--	---	---	--	---	--

2) Bo'linmani toping:

$9572 : 4$	$9760 : 5$	$8572 : 4$	$7404 : 6$
$34050 : 6$	$61032 : 8$	$25300 : 4$	$70866 : 9$
$26400 : 6$	$50800 : 8$	$78570 : 9$	$87570 : 9$

94. Misollarni yeching:

$830 \cdot 20$	$210 \cdot 80$	$420 \cdot 200$	$180 \cdot 60$
$650 \cdot 30$	$512 \cdot 50$	$17 \cdot 500$	$180 \cdot 300$
$500 \cdot 60$	$75 \cdot 60$	$19 \cdot 300$	$15 \cdot 500$

95. Bo'linmani toping:

$7200:20$	$7800:200$	$94000:2000$	$5100:30$
$9600:30$	$7200:300$	$75000:5000$	$2100:900$
$7200:80$	$6500:500$	$48000:3000$	$64000:4000$



96. Parrandachilik fermasida bir sutkada 7805 ta tuxum olinadi. Bir hafta, bir oyda qancha tuxum olinadi?

97. Fabrika mart oyining 13 kunida har kuni 420 t qog'oz, qolgan 18 kunida esa 450 t dan qog'oz ishlab chiqqan. Fabrika mart oyi davomida hammasi bo'lib necha tonna qog'oz ishlab chiqqan?

98. Misollarni yeching:

$600000 - 590 \cdot 400$	$44380:7 + 88888$
$567008 - 370 \cdot 500$	$61000:100 \cdot 700$
$33656:8 + 39999$	$700000:1000 \cdot 24$

99. Misollarni tuzing va yeching:



100. Birinchi yuk tashish poyezdi soatiga 40 km tezlik bilan 4 040 km yo'l bosdi. Ikkinchi yuk tashish poyezdi esa soatiga 30 km tezlik bilan 3 600 km yo'l bosdi. Qaysi poyezd ko'proq vaqt yo'l bosdi?

101. Ko'paytmani toping:

3 805 · 45	875 · 67	7 294 · 47	1 676 · 89
4 670 · 79	18 706 · 33	42 378 · 19	3 405 · 36
5 760 · 90	5 590 · 70	5 620 · 50	5 079 · 42
15 940 · 30	4 427 · 42	29 368 · 14	28 407 · 30

102. Maktab yer uchastkasidan 54 kg qulupnay terib olindi va bir xil og'irlikda 18 ta yashikka joylashtirildi. Har bir yashikdagi qulupnay og'irligini hisoblang.

103. «Matiz» avtomobili 1 soatda 64 km yo'l bosdi. Yo'lovchi esa shu vaqtda 16 marta kam yo'l bosdi. Yo'lovchi 1 soatda necha kilometr yo'l bosdi?

104. Bo'linmalarni solishtiring hamda $>$, $<$ belgilaridan mosini qo'ying.

37 350 : 18 ...	164 952 : 12	878 768 : 88 ...	445 500 : 12
16 890 : 15 ...	73 010 : 98	513 776 : 16 ...	198 297 : 99

105. Bo'linmani toping:

5 124 : 42	15 155 : 35	8 245 : 85	35 568 : 57
2 646 : 27	14 580 : 45	8 288 : 74	30 134 : 36
7 208 : 34	20 864 : 64	8 004 : 92	13 328 : 28

106. 960 t don vagonlarga ortilib, poyezdda jo'natilishi kerak. Bir vagonga 40 t don ortilsa, shuncha donni nechta vagonga ortish mumkin? 60 tonna donni-chi?

107. Bo'linmalarni toping. Bo'lishning to'g'riligini ko'paytirish yordamida tekshiring:

Namuna:	Bo'lish amali:	Tekshirish:
	$ \begin{array}{r} 36\overset{1}{1}20 \quad \quad 12 \\ \underline{- 36} \\ 1 \\ \underline{- 0} \\ 12 \\ \underline{- 12} \\ 0 \end{array} $	$ \begin{array}{r} 3010 \\ \times 12 \\ \hline 6020 \\ + 3010 \\ \hline 36120 \end{array} $

- | | | |
|-----------------|--------------|--------------|
| a) 90 108 : 18 | 168 504 : 56 | 52 224 : 24 |
| 245 315 : 35 | 567 504 : 63 | 41 472 : 32 |
| 376 282 : 74 | 13 831 : 87 | 92 340 : 95 |
| b) 291 768 : 12 | 103 444 : 44 | 147 840 : 16 |
| 527 130 : 15 | 254 694 : 11 | 887 500 : 25 |
| 704 286 : 33 | 131 533 : 31 | 801 900 : 11 |

108. Ko'mir bazasiga 1350 t ko'mir keltirildi. Ko'mirning yarmi 15 ta vagonga bir xil miqdorda ortildi. Har bir vagonga ortilgan ko'mir necha tonna?

109. Masala tuzing va yeching:

a)
 22 yashik – 352 kg
 34 yashik – ? kg

b)
 25 qop – 1 125 kg
 ? qop – 1 440 kg

110. Ko'paytmani toping:

23442 · 21	31203 · 12	12 · 42143	26000 · 13
14213 · 22	23014 · 21	31 · 18070	14500 · 34
31211 · 16	25007 · 41	17 · 940	30150 · 16
17152 · 14	16005 · 13	33 · 11274	20700 · 41

111. Do'kon tushgacha 14 quti bo'yoq sotdi, tushdan keyin esa yana 7 ta shunday quti bo'yoq sotdi va ularga jami 18837 so'm pul to'landi. 1 ta bo'yoq qutining narxi qanchaga teng?

112. Namunada bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring. Bo'lishni namunadagidek bajaring va bo'linmadagi belgilar sonini aniqlang.


Namuna:

$$\begin{array}{r}
 230\overline{)322} \quad | \quad 46 \\
 \underline{-230} \\
 3 \\
 \underline{-0} \\
 32 \\
 \underline{-32} \\
 0
 \end{array}$$

144420 : 12	744120 : 24
480765 : 15	496124 : 31
718377 : 11	110132 : 22
151125 : 25	800192 : 16
367570 : 35	893376 : 44

113. Bahorda 6970 tup sabzavot ko'chatlari sotib olindi. 34 ta yashikka bir xil miqdorda joylashtirilib, maktabga olib kelindi. Shundan 15 ta yashikdagi ko'chatlar ekildi. Yana nechta ko'chat ekilishi kerak?

114. Misollar tuzing va ularni yeching:




115. 18 gektar maydondan 3 150 sr kartoshka, 14 gektar maydondan esa 2 240 sr kartoshka yig'ib olindi. I maydon bir gektaridan olingan kartoshka II maydon bir gektaridan olingan kartoshkaga qaraganda qanchaga ko'p?

116. Masalalar tuzing va ularni yeching:

- 1) 3 248 kg 4 576 kg

1 ta  → 16 kg bo'lsa, ? yashik kerak.



117. Bo'linmani toping:

$39933 : 87 : 3$

$80325 : 85 : 5$

$208 \quad 72 : 36$

$63525 : 75 : 7$

$127620 : 18 : 10$

$706 \quad 48 : 96$

$6384 : 38 : 6$

$135108 : 27 : 4$

$900 \quad 14 : 28$

118. Misollarni yeching:

$248 \cdot 75 - 16416 : 36$

$30000 - 28420 : 58$

$5022 \cdot 18 + 784 \cdot 68$

$14400 : 19 + 30240$

119. Temirchi usta 6 soatda 72 ta buyum qismiga ishlov berdi. Usta shogird shuncha buyum qismini soatiga 4 ta kamdan ishlov bersa, shogirdga ishni bajarish uchun necha soat vaqt kerak bo'ladi?

120. Do'konga har biri 85 kg dan 125 ta va 72 kg dan 105 ta qop shakar keltirildi. Keltirilgan shakarning umumiy massasini toping.

$121. \quad 100800 - 211824 : 72$

$106542 : 27 + 1079 \cdot 38$

$7096 \cdot 76 - 9746$

$9746 \cdot 47 - 98712 : 36$

$70104 : 23 + 809746$

$4080 \cdot 53 - 176640 : 96$

$29107 \cdot 25 - 14097$

$686052 : 76 - 8745 \cdot 26$

122. Birinchi son ikkinchisidan necha marta ko'p?

$357192 \text{ va } 82$

$221100 \text{ va } 67$

$104078 \text{ va } 26$

$46 \text{ va } 157550$

$130500 \text{ va } 15$

$47 \text{ va } 235141$

$158620 \text{ va } 35$

$69 \text{ va } 158700$

$66 \text{ va } 330132$

$64 \text{ va } 122000$

$86 \text{ va } 473000$

$960165 \text{ va } 95$

123. $95076 : 19 + 161138 : 23$
 $52091 : 13 - 51153 : 28$
 $3008 \cdot 16 : 32 + 4496$
 $105600 : 15 \cdot 25 - 99099$
 $43260 : 14 + 4008 \cdot 16$

124. Misollar tuzing va ularni yeching:



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. 22 gektar yerning har bir gektaridan 215 sentnerdan, 15 gektar yerning har bir gektaridan 240 sentnerdan kartoshka yig'ib olindi. Har ikkala xo'jalikdan qancha kartoshka yig'ib olindi?
2. Misollarni yeching:

$105315 : 15$	$34680 \cdot 13$	$25043 \cdot 46$
$154368 : 32$	$255600 : 18$	$18094 \cdot 23$
3. Fabrikada 30840 ta sport kostumi tikildi. Kostumlarning yarmi ko'k rangli, qolganlari esa oq rangli kostumlardir. Tikilgan oq rangli kostumlar soni nechta?
4.

$248 \cdot 35$	$24960 : 24$	$106 \cdot 23$
$38400 : 12$	$1214 \cdot 12$	$16890 : 15$
5. $231750 : 75 : 15 + 920530 : 65$



KATTALIKLARNI O'LCHASH NATIJASIDA HOSIL BO'LGAN SONLAR

125. a) Kattaliklarni o'lchashda uzunlik, massa, vaqt, pul-qiymat birliklaridan foydalaniladi. Ular o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlar deyiladi: 200 sm, 5 kg, 10 soat, 1000 so'm kabi sonlar.



4 sm



500




1000

b) Sonlar, shuningdek, narsa miqdorini, hisobni, raqamlar tartibini ifodalaydi: 7; 18 ta nok; 270 ta kitob; 1000 000; 100 000 ta uy va hokazo;

d) Sonlar qatoridan o'lchashda hosil bo'lgan sonlarni ajratib yozing:

200 ta parta, 800 sm, 30 g, 9 soat 15 min, 29 ta ruchka, 340 000 kishi, 80 000 kg, 20 min 6 sek, 8 ta lenta, 609783, 4 sm 2 mm, 10 oy.

126. Kattaliklarni bir yoki ikki o'lchov birligi bilan o'lchash mumkin.



127. Quyidagi sonlar qatoridan ikki o'lchov birlikli sonlarni ajratib yozing:

400 sr; 105 km 200 m; 1 sm 2 mm; 53 yosh, 16 soat, 80 t, 3 soat 12 min; 3 t 500 kg, 1 kg 200 g, 7 oy.

128. Qaysi kattalik o'lchov birliklari ko'rsatilgan? Yozing. Yirik o'lchov birliklarini maydalang.

Uzunlik o'lchovlari	... o'lchovlari	... o'lchovlari
1 sm = ... 10 mm	1 kg = 1000 g	1 min = 60 sek
1 m = ... sm	1 sr = ... kg	1 s = ... min
1 dm = ... sm	1 t = ... sr	1 sut = ... soat
1 m = ... dm	1 t = ... kg	1 oy = ... sut
1 m = ... mm		1 yil = ... oy
1 km = ... m		1 yil = ... sut

129. Namunaga qarab o'lchov birligining mosini qo'ying.

$$1 \text{ m} = 82 \text{ sm} + 18 \text{ sm}$$

$$1 \text{ kg} = 600 \text{ g} + 400 \text{ g}$$

$$1 \text{ m} = 9 \text{ sm} + \boxed{} \text{ sm}$$

$$1 \text{ km} = 340 \text{ m} + \boxed{} \text{ m}$$

$$1 \text{ km} = 64 \text{ m} + \boxed{} \text{ m}$$

$$1 \text{ sm} = 5 \text{ mm} + \boxed{} \text{ mm}$$

$$1 \text{ sm} = 9 \text{ mm} + \boxed{} \text{ mm}$$

$$1 \text{ kg} = 340 \text{ g} + \boxed{} \text{ g}$$

$$1 \text{ sr} = 9 \text{ kg} + \boxed{} \text{ kg}$$

$$1 \text{ sr} = 20 \text{ kg} + \boxed{} \text{ kg}$$

$$1 \text{ t} = 3 \text{ sr} + \boxed{} \text{ sr}$$

$$1 \text{ t} = 780 \text{ kg} + \boxed{} \text{ kg}$$

130. Yirik o'lchov birliklarini maydalang. Buning uchun nimani bilish kerak? Maydalashda qaysi arifmetik amaldan foydalaniladi?

Namuna:

$$5 \text{ km} = 5000 \text{ m}$$

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$$

$$1000 \text{ m} \cdot 5 = 5000 \text{ m}$$

$$7 \text{ km} \quad 280 \text{ m}$$

$$9 \text{ mm} \quad 016 \text{ m}$$

$$2 \text{ km } 7 \text{ m}$$

$$43 \text{ km}$$

$$3 \text{ m}$$

$$8 \text{ m } 12 \text{ sm}$$

$$15 \text{ m}$$

$$7 \text{ m } 8 \text{ sm}$$

$$5 \text{ sm}$$

$$6 \text{ sm } 2 \text{ mm}$$

$$70 \text{ sm}$$

$$18 \text{ sm } 3 \text{ mm}$$

131. Mayda o'lchov birliklarida ifodalang:

1 t = 1000 kg	1 t = 10 sr	1 kg = 1000 g	1 sr = 100 kg
7 t 162 kg	1 t 8 sr	4 kg 6 g	30 sr
8 t 5 kg	80 t	8 kg 15 g	8 sr 4 kg
4 t 36 kg	12 t 6 sr	25 kg	7 sr 15 kg

132. O'lchashda hosil bo'lgan sonlarni yirikroq o'lchov birliklarida ifodalang.

Buning uchun nimani bilish kerak?

Qaysi arifmetik amaldan foydalaniladi?

Namuna:

$$\frac{70\,000\text{ g}}{1\,000\text{ g}} = 70\text{ kg}$$

$$1\,000\text{ g} = 1\text{ kg}$$

$$70\,000 : 1\,000 = 70$$

$$5\,000\text{ m} = \dots\text{ km}$$

$$5\,270\text{ m} = \dots$$

$$8\,032\text{ m} = \dots$$

$$15\,006\text{ m} = \dots$$

$$7\,000\text{ sm} = \dots\text{ m}$$

$$613\text{ sm} = \dots$$

$$208\text{ sm} = \dots$$

$$2\,560\text{ sm} = \dots$$

$$30\text{ mm} = \dots\text{ sm}$$

$$45\text{ mm} = \dots$$

$$156\text{ mm} = \dots$$

$$200\text{ mm} = \dots$$

133. Yirik o'lchov birliklarida ifodalang:

$$6\,000\text{ kg} = \dots\text{ t}$$

$$7\,185\text{ m} = \dots\text{ km} \dots\text{ m}$$

$$5\,063\text{ g} = \dots\text{ kg} \dots\text{ g}$$

$$17\,000\text{ sm} = \dots\text{ m}$$

$$300\text{ kg} = \dots\text{ sr}$$

$$20\,130\text{ g} = \dots\text{ kg} \dots\text{ g}$$

$$70\text{ sr} = \dots\text{ t}$$

$$125\text{ sr} = \dots\text{ t} \dots\text{ sr}$$

$$200\text{ sr} = \dots\text{ t}$$

$$72\text{ mm} = \dots\text{ sm} \dots\text{ mm}$$

$$2\,137\text{ kg} = \dots\text{ sr} \dots\text{ kg}$$

$$80\,004\text{ g} = \dots\text{ kg} \dots\text{ g}$$

134. 1) Vaqtni o'lchashda hosil bo'lgan vaqt birliklarini ayting.

2) Vaqt birliklarini qo'ying:

$$1 \dots = 100 \dots$$

$$1 \dots = 12 \dots$$

$$1 \dots = 30 \dots$$

$$1 \dots = 24 \dots$$

$$1 \dots = 60 \dots$$

$$1 \dots = 60 \dots$$

3) Sonlarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying.

7 soat ... 7 min

60 min ... 12 soat

1 sut ... 5 soat

2 soat ... 120 min

1 asr ... 100 yil

13 yil ... 15 sut

60 soat ... 3 min

200 yosh ... 2 asr.

4 oy ... 60 sut

2 soat 40 min ... 170 min

135. Rasmlarda ko'rsatilgan soat vaqtlarini ayting. Soatga qarab kun vaqtlarini: ertalab yoki kechqurun, kun yoki tunni aniqlash mumkinmi?



136. Soat siferblatida 1 va 12 raqamlari bor, lekin sutka 24 soat. Soat 9 **ertalabmi** yoki **kechqurun?**

Sutka boshlanishi – 0 s. Kunduzgi 12 soatdan so'ng soat vaqti 13 (yoki kunduzgi soat 1), undan keyin soat 14 (kunduzgi soat 2) va hokazo.

Jadvalni to'ldiring va eslab qoling:

soat 13 – kunduzgi soat 1

soat 19 – kechqurungi soat ...

soat 14 – kunduzgi soat 2

soat 20 – kechqurungi soat ...

soat 15 – kunduzgi soat ...

soat 21 – kechqurungi soat ...

soat 16 – kunduzgi soat ...

soat 22 – kechqurungi soat ...

soat 17 – kechqurungi soat ...

soat 23 – kechki soat ...

soat 18 – kechqurungi soat ...

soat 24 – kechki soat ...

137. Metroning elektron soatlarida elektropoyezdning jo'nash vaqti ko'rsatilgan. Elektropoyezdni jo'nash vaqtiga qarab ertalab, kunduzi, kechqurun, kechki vaqtlarni aniqlang:

17:00

13:05

06:00

11:08

23:08

09:45

138. 1) Kechasi soat 2, ertalab soat 7, kunduz soat 2, kech soat 7 bo'lsa, sutkaning o'tgan vaqtini aniqlang.

2) Soat 3 dan 9 gacha, 6 dan 12 gacha, 10 dan 18 gacha vaqt oralig'ini aniqlang.

139. 1) Quyosh soat 7 da chiqib, soat 19 da botdi. Kun uzunligini ayting.

2) Darslar soat 8 da boshlanib, 6 soatdan so'ng tugadi. Darslarni tugash vaqtini hisoblang.

3) Basketbol mashqlari 3 soat davom etdi va soat 18 da tugadi. Mashg'ulot soat nechada boshlangan?

140. 1991-yil 1-sentabr O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kuni. Bu yil uni necha yilligini nishonlaymiz?

141. O'zbekiston Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Shu vaqtdan beri necha yil o'tdi?



142. Masalalar tuzing va yeching:

Hozir ... yil ketayapti, men ... yili tug'ildim. Necha yoshdaman. Hozir ... yil ketayapti. Malik 14 yoshga to'ldi. Malik nechanchi yilda tug'ilgan?

143. Mohinur 2007-yilda tugʻilgan. U nechanchi yilda 15 ga toʻladi?
144. Ulugʻ mutafakkir, shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda tugʻilib, 1501-yil 3-yanvarda vafot etdi. Shoir necha yil yashagan?
145. Metropolitenning Toshkentdagi birinchi yoʻli 1977-yilda ochildi. Shundan beri necha yil oʻtdi?
146. 2008-yili Toshkentda tramvayning birinchi yoʻnalishi ochilganligining 107 yilligi nishonlandi. Toshkent shahrida tramvay nechanchi yildan yura boshlagan?
147. 1) Ishchilarning mehnat taʼtili 24 (36, 48) ish kuniga teng. Agar taʼtilga 16-iyun yoki 27-yanvar kuni ketilsa, ishga tushish vaqtini aniqlang.
- 2) Sportchilar musobaqaga 7-iyunda ketib, 23-iyun kuni qaytdilar. Sportchilar necha kun musobaqada boʻlishgan?

OʻLCHASHDA HOSIL BOʻLGAN SONLARNI QOʻSHISH VA AYIRISH

Kattaliklar ustida amallar bir xil oʻlchov birligida amalga oshiriladi:

$$5 \text{ m} + 150 \text{ m} = 155 \text{ m}$$

$$100 \text{ t} + 300 \text{ t} = 400 \text{ t}$$

$$200 \text{ s} + 45 \text{ s} = 245 \text{ s}$$

148. Misollarni ogʻzaki yeching. Hisoblashni yirik oʻlchov birliklaridan boshlang.

- | | |
|-------------------------|-----------------------|
| a) 15 m 36 sm + 64 sm | 13 sm 8 mm + 2 mm |
| 18 sm 3 mm + 5 sm | 16 kg 200 g + 800 g |
| 20 sr 80 kg + 20 kg | 40 t 3 sr + 15 t |
| 5 t 160 kg + 2 t 740 kg | 6 m 17 sm + 3 m 23 sm |
| b) 10 m - 9 sm | 50 sr 3 kg - 3 sr |
| 8 kg - 800 g | 80 kg 120 g - 70 g |
| 2 t - 2 sr | 1 m - 200 mm |
| 3 sm - 5 mm | 7 km - 6 km 100 m |

149. Sonlarni solishtiring, $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:

- | | |
|----------------------|---------------------------|
| 30 m ... 30 sm | 18 t 3 sr ... 15 t 600 kg |
| 1 kg 15 g ... 1015 g | 41 m 78 sm ... 1 km 3 m |
| 18 mm ... 1 sm 8 mm | 8 t 12 kg ... 7120 kg |
| 1 sr ... 78 kg | 13 sm ... 50 mm |

150. Qo'shishni ustun shaklida bajaring. Maydalash va yiriklash usullarini tushuntiring.

Namuna:

$$\begin{array}{r}
 24 \text{ m } 16 \text{ sm} \\
 + \\
 35 \text{ m } 93 \text{ sm} \\
301. Bitta ko'ylakka 2,75 m, kostum-shimga 2,80 m gazlama ketadi. 8 ta shunday ko'ylak va 7 ta shunday kostum-shim tikish uchun necha metr gazlama kerak bo'ladi?



O'NLI KASRLARNI NATURAL SONGA BO'LISH



Yodda tuting! O'nli kasrni natural songa bo'lish natural sonlarni bo'lishdagidek bajariladi. Avval butun qismini bo'lishni tugatib, bo'linmada vergul qo'yamiz. Butundan qolganlarni o'ndan bir ulushlarga bo'lamiz, o'ndan bir ulushlar qoldig'ini yuzdan bir ulushlarga, yuzdan bir ulushlar qoldig'ini mingdan bir ulushlarga va hokazo ulushlarga bo'lamiz. Masalan:

$$\begin{array}{r} 1625 \overline{)5} \\ - 15 \\ \hline 12 \\ - 10 \\ \hline 25 \\ - 25 \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 16,25 \overline{)5} \\ - 15 \\ \hline 12 \\ - 10 \\ \hline 25 \\ - 25 \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 315,2 \overline{)8} \\ - 24 \\ \hline 75 \\ - 72 \\ \hline 32 \\ - 32 \\ \hline 0 \end{array}$$

1625 – bo'linuvchi
5 – bo'luvchi
325 – bo'linma

302. Bo'lishni bajaring:

$5,46 : 2$

$10,65 : 3$

$672,36 : 3$

$13,44 : 3$

$15,96 : 3$

$847,8 : 8$

$6,48 : 4$

$19,28 : 2$

$579,65 : 3$

303. Hisoblang:

$60,5 : 5$

$12,6 : 6$

$32,4 : 8$

$20,8 : 2$

$15,6 : 3$

$45,9 : 9$

$16,4 : 2$

$3,36 : 3$

$4,2 : 3$

304.

Намуна:



$$\begin{array}{r|l} 0,012 & 4 \\ - & 12 \\ \hline & 0 \end{array} \quad 0,003$$

- | | | | |
|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 0,8 : 2 | 0,05 : 2 | 0,09 : 3 | 0,848 : 4 |
| 0,6 : 8 | 0,08 : 4 | 0,008 : 4 | 62,4 : 2 |
| 0,04 : 2 | 0,6 : 2 | 0,005 : 5 | 9,36 : 3 |
| 0,009 : 3 | 0,004 : 4 | 0,6 : 3 | 0,639 : 3 |

305. Hisoblang:

- | | | | |
|-----------|------------|-----------|------------|
| 0,12 : 6 | 6,18 : 6 | 0,427 : 7 | 7,287 : 7 |
| 0,16 : 8 | 9,021 : 3 | 0,128 : 4 | 12,208 : 4 |
| 0,024 : 8 | 16,48 : 8 | 1,59 : 3 | 271,26 : 3 |
| 0,072 : 9 | 271,54 : 9 | 20,5 : 5 | 540,05 : 5 |

306. o'rnidagi sonni toping:



307. 6,15 m uzunlikdagi sim bo'lagi 3 ta teng bo'lakka bo'lindi. Simning shunday bo'laklaridan ikkitasining uzunligi qancha?

308. Usta 4,2 m uzunlikdagi taxtani 5 ta teng bo'lakka bo'ldi. Taxtaning har bir bo'lagining uzunligi qancha?

309. Bo'linmani toping:

$6,244 : 4$	$35,128 : 2$	$8,365 : 5$	$81,054 : 9$
$24,488 : 2$	$44,884 : 7$	$4,036 : 4$	$48,018 : 6$
$66,903 : 3$	$64,287 : 9$	$24,288 : 8$	$24,328 : 4$
$5,145 : 5$	$57,321 : 3$	$10,356 : 6$	$21,497 : 7$

310. Avtobus *A* shahardan *B* shaharga borishda 56 km/soat tezlik bilan, *B* shahardan *A* shaharga qaytishda 44 km/soat tezlik bilan yurdi. Avtobus jami yo'lni o'rtacha qanday tezlik bilan yurgan?

311. 1) Hasan 7 qadam tashlab, 4,2 m yo'l bosdi. Uning bir qadami uzunligi qancha?

2) Poyezd 486,4 km masofani 8 soatda bosib o'tadi. Shu poyezd 14,2 soatda necha kilometr yo'l bosadi?

312. Amallarni bajaring:

$7,2 : 6 + 5,16 : 4$	$15,4 : 7 - 4,83 : 3$
$16,5 : 5 + 13,28 : 4$	$9,5 : 5 + 74,25 : 5$
$36,15 : 5 + 55,32 : 6$	$37,74 : 3 - 21,32 : 4$
$19,72 : 2 - 22,54 : 7$	$35,76 : 4 + 96,15 : 5$

313. Hisoblang:

$375,9 : 3$	$195,37 : 7$	$8005,2 : 4$
$36,168 : 6$	$3214,4 : 8$	$4030,5 : 5$
$407,12 : 2$	$8,124 : 6$	$16,436 : 7$
$99,063 : 9$	$1600,4 : 2$	$563,22 : 9$



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

- 4 ta detal 14,8 kg bo'lsa, shunday 8 ta detalning massasini toping.
- Ikki choy qutidagi choy og'irligi 12,8 kg bo'lsa, 9 ta choy qutidagi choyni og'irligi necha kilogramm?
- $203,4 : 5$ $28,4 \cdot 9 : 8$ $17 : 2$
 $9 \cdot 0,426$ $491 : 4 \cdot 7$ $15,6 \cdot 8$
- Bir brigada 5 kun ichida 2,15 km yo'l, ikkinchi brigada esa 3 kun ichida 3,062 km yo'lni ta'mirladi. Har ikki brigada necha km yo'lni ta'mirladi?
- $0,98 \cdot 7$ $0,096 : 4$ $14,9 \cdot 3$ $72,04 : 4$
 $51,4 \cdot 8$ $10,1 : 5$ $5,12 \cdot 2$ $123 : 2$

O'NLI KASRLARNI 10, 100, 1000 GA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

- 314.** Butun sonlarni 10, 100, 1000 ga ko'paytirish qoidasini eslang. Misollarni og'zaki yeching:

$3 \cdot 10 = 30$	$12 \cdot 10$	$106 \cdot 10$	$37 \cdot 1000$
$3 \cdot 100 = 300$	$24 \cdot 100$	$241 \cdot 100$	$215 \cdot 10$
$3 \cdot 1000 = 3000$	$32 \cdot 1000$	$506 \cdot 1000$	$620 \cdot 100$

- 315.** Butun sonlarni 10, 100, 1000 ga bo'lish qoidasini eslang. Misollarni og'zaki yeching:

$40 : 10 = 4$ <input style="width: 20px; height: 15px;" type="text"/>	$120 : 10$	$21560 : 10$
$400 : 100 = 4$ <input style="width: 40px; height: 15px;" type="text"/>	$700 : 100$	$60800 : 100$
$4000 : 1000 = 4$ <input style="width: 60px; height: 15px;" type="text"/>	$10000 : 1000$	$30000 : 1000$



Yodda tuting! O'nli kasrni 10 marta orttirish uchun vergulni bitta raqam o'ngga surish kerak. Masalan, $4,69 \cdot 10 = 46,9$.

316. Har bir o'nli kasrni 10 marta orttiring:

3,125	6,58	16,44	30,197
6,644	5,35	8,8	94,66
0,017	8,005	6,3	0,7
9,1	0,9	1,06	0,05

317. O'nli kasrni 10 marta orttiring: Namuna: $2,55 : 10 =$

2,55	7,08	7,895	1,005
5,07	0,085	61,72	2,074
0,001	0,079	41,005	0,002
0,007	3,003	52,007	0,185

318. Vergulni ikki raqam o'ngga surish bilan o'nli kasrning 100 marta orttirishini bilib oldik.

4,335 ni 100 marta orttiramiz. Natijada, quyidagini hosil qilamiz: $4,335 \cdot 100 = 433,5$.

2,5 ni 100 ga ko'paytiring. $2,5 \cdot 100 = ?$

2,5 ni 100 marta orttirish uchun vergulni ikki raqam o'ngga surish kerak. Ammo 2,5 sonida faqat bitta o'nli raqam bor. Ikkita o'nli raqam hosil qilish uchun uning o'ng tomoniga bitta nol yozib qo'yish kerak (bu bilan kasrning qiymati o'zgarmaydi): $2,5 \cdot 100 = 250$.



Yodda tuting! O'nli kasrni 100 marta orttirish uchun vergulni ikki raqam o'ngga surish kerak.

Masalan, $1,448 \cdot 100 = 144,8$ $3,7 \cdot 100 = 370$

Har bir o'nli kasrni 100 marta orttiring:

8,014	7,362	0,756	0,087
6,007	4,305	9,007	1,011
5,36	0,44	16,15	0,567
0,034	0,08	0,2	10,2

319. O'nli kasrlarni 100 marta orttiring:

12,039	4,011	0,03	10,085
0,087	0,09	1,308	9,712
6,8	3,1	0,05	21,5
0,725	0,016	0,006	12,70

320. O'nli kasrlarni 100 marta orttiring:

6,8	3,1	0,05	21,5
0,725	0,016	0,006	12,70

321. Vergulni uch raqam o'ngga surish bilan o'nli kasr 1000 marta ortadi. 5,234 ni 1000 marta orttiramiz:

$5,234 \cdot 1000 = 5234$ yoki $7,3 \cdot 1000 = 7300$



Yodda tuting! O'nli kasrni 1000 marta orttirish uchun vergulni uch raqam o'ngga surish kerak.

$5,679 \cdot 1000 = 5679$; $3,7 \cdot 1000 = 3700$;

$1,56 \cdot 1000 = 1560$

Har bir o'nlı kasrni 1000 marta orttiring:

3,1734	2,603	5,72	9,4
4,5689	8,107	2,03	2,5

322. 1000 marta orttiring:

0,3210	0,408	0,061	0,001
7,2879	2,351	1,67	1,3

323. 1000 marta orttiring:

0,148	0,037	14,289	0,814	0,07
0,306	0,007	0,7681	0,603	0,9
0,05	0,1	0,2	5,153	2,306

324. 3,25 · 10	0,374 · 10	3,144 · 100	0,176 · 100
7,04 · 10	0,065 · 10	6,037 · 100	0,035 · 100
5,07 · 10	0,09 · 10	4,62 · 100	0,07 · 100
4,8 · 10	0,2 · 10	1,5 · 100	0,1 · 100

325. Har biri 1,65 so'mdan 100 varaq qog'oz sotib olindi. Hamma qog'ozga necha so'm to'langan?

326. Har biri 1,29 so'mdan 100 ta rangli qalam sotib olindi. Hamma qalamga necha so'm to'landi?

327. 7,15 · 10	0,013 · 10	1,8 · 100	6,37 · 100
1,084 · 100	0,014 · 100	0,008 · 100	5,1 · 10
9,01 · 10	3 · 10	0,7 · 10	0,3 · 100
6,3 · 100	60 · 100	56,1 · 10	17,1 · 100

328. 6 384 · 1 000	0,784 · 1 000	0,076 · 10	4,9 · 1 000
3,978 · 1 000	0,063 · 1 000	0,008 · 1 000	0,3 · 1 000
6,12 · 1 000	0,07 · 1 000	0,06 · 100	0,8 · 100



Yodda tuting! O'nli kasrni 10 marta kamaytirish uchun vergulni bir raqam chapga surish kerak. Masalan, $45,8 : 10 = 4,58$.

329. O'nli kasrni 10 marta kamaytiring:

165,3	204,5	100,7	435,3
314,2	108,7	300,9	807,2
1,5	2,9	6,4	9,2
173,5	600,7	20,7	700,3

330. O'nli kasrni 10 marta kamaytiring:

63,8	70,8	10,1	8,5
24,5	40,3	90,3	30,7
37,5	9,04	7,01	3,44
3,7	7,09	5,8	7,3

331. Vergulni ikki raqam chapga surganda o'nli kasr 100 marta kamayadi. 17,3 ni 100 marta kamaytiramiz. Natijada, $17,3 : 100 = 0,173$ ni hosil qilamiz.

5,1 ni 100 marta kamaytiramiz.

$$5,1 : 100 = ?$$

5,1 ni 100 marta kamaytirish uchun vergulni ikki raqam chapga surish kerak. Ammo 5,1 sonida verguldan chapda faqat bitta raqam bor. Ikkita o'nli raqam hosil qilish uchun kasrning butun qismini oldida nollar qo'shib yoziladi (bu bilan butun sonning qiymati o'zgarmaydi):

$$0,51 : 100 = 0,0051$$

$$0,3 : 100 = 0,003$$



Yodda tuting! O'nli kasrlarni 100, 1000 marta kamaytirish uchun vergulni ikki, uch raqam chapga surish kerak.


Masalan, $42,8 : 100 = 0,428$

$342 : 1000 = 0,342$

$0,9 : 100 = 0,009$

$15 : 1000 = 0,015$

332. Misollar tuzing va ularni yeching:



333. Har bir sonni necha marta orttirish yoki kamaytirish mumkin?

$1,2 \cdot 1 \square = 120$

$238 : 1 \square = 23,8$

$0,8 \cdot 1 \square = 8$


$145 : 1 \square = 0,145$

$5,3 \cdot 1 \square = 5300$

$36,2 : 1 \square = 3,62$

$0,72 \cdot 1 \square = 72$

$24 : 1 \square = 0,24$



334. Misollar tuzing va yeching:

Sonlar	13,4	2,06	72	0,5	9	128,4
10 marta orttiring						
10 marta kamaytiring						
100 marta orttiring						
100 marta kamaytiring						



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. $5,4 \cdot 100$ $183 : 1000$ $4,7 : 100$ $0,197 \cdot 100$
 $3,7 : 10$ $0,5 \cdot 1000$ $15,6 \cdot 10$ $67,8 : 100$
2. $12,4 \text{ kg} \cdot 10$ $3,72 \text{ sr} \cdot 100$ $7,2 \text{ t} : 10$
 $15,9 \text{ m} : 10$ $19,8 \text{ t} : 100$ $0,6 \text{ sm} \cdot 10$
3. Bir dona choyshab uchun 2,15 m, bir dona yostiq jildi uchun 0,6 m chit kerak bo'ladi. 10 ta choyshab va 100 ta yostiq jildi uchun necha metr chit zarur bo'lishini hisoblang.
4. Sonlarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ belgilaridan mosini qo'ying:
 $10,7$ $10 \dots 10,7 : 10$ $0,12$ $10 \dots 12 : 10$
 $5,32$ $100 \dots 532 : 100$ $1,39$ $100 \dots 10$ 100

YAXLIT O'NLIK, YUZLIK, MINGLIKLARGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

335. Og'zaki yeching:

$3 \text{ } 10$	$0,3 \text{ } 2$	$6 \text{ } 20$	$0,12 \text{ } 100$	$0,72 \text{ } 1000$
$0,3 \text{ } 10$	$0,32 \text{ } 3$	$0,6 \text{ } 2$	$0,12 \text{ } 3$	$0,07 \text{ } 2$

336. Misollar yechilishiga qarang. Butun sonlar va o'nli kasrlarni yaxlit o'nlik, yuzlik, mingliklarga ko'paytirishni taqqoslang. Misollarni yeching va tushuntiring:

a)

\times	3045	\times	$3,045$
	40		40
	$\hline 121800$		$\hline 121,800$

\times	$27,15$	\times	$6,9$	\times	$0,126$
	30		50		20
	$\hline \dots\dots$		$\hline \dots\dots$		\hline

O'qli kasrlar yaxlit o'nliklarga qanday ko'paytiriladi?

b)

$\begin{array}{r} \times 540 \\ \hline 600 \\ \hline 324000 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 0,54 \\ \hline 600 \\ \hline 324,00 \end{array}$
--	---

$$\begin{array}{r} \times 12,7 \\ \hline 400 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 0,106 \\ \hline 700 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 3,04 \\ \hline 200 \end{array}$$

.....

O'qli kasrlar yaxlit yuzliklarga qanday ko'paytiriladi?

d)

$\begin{array}{r} \times 116 \\ \hline 5000 \\ \hline 580000 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 11,6 \\ \hline 5000 \\ \hline 580,000 \end{array}$
---	---

$$\begin{array}{r} \times 0,154 \\ \hline 3000 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 2,56 \\ \hline 4000 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 0,6 \\ \hline 6000 \end{array}$$

.....

O'qli kasrlar yaxlit mingliklarga qanday ko'paytiriladi?

337. $0,052 \cdot 3000$

$1,289 \cdot 70$

$18,39 \cdot 500$

$15,7 \cdot 600$

$0,048 \cdot 900$

$0,897 \cdot 400$

338. $245 \cdot 400$

$187,7 \cdot 50$

$53,2 \cdot 7000$

$24,5 \cdot 400$

$1,877 \cdot 50$

$5,32 \cdot 7000$

$2,45 \cdot 400$

$18,77 \cdot 50$

$0,532 \cdot 7000$

$0,245 \cdot 400$

$1877 \cdot 50$

$532 \cdot 7000$

Har bir ustundagi misollarning o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ayting.

$53,6 \cdot 400$	$5,17 \cdot 900$	$0,123 \cdot 5000$	$72,08 \cdot 0$
$0,189 \cdot 70$	$0,08 \cdot 9000$	$14,76 \cdot 40$	$5,039 \cdot 70$
$3,12 \cdot 1000$	$50,63 \cdot 100$	$36,08 \cdot 10$	$1,03 \cdot 800$

340. Sayyohlar avtobus bilan 63,5 km yo'l, poyezd bilan esa 30 marta ko'p yo'l bosib o'tdilar. Sayyohlar poyezd bilan qancha yo'l bosib o'tdilar?

341. Bir dona choyshab uchun 2,15 m chit kerak bo'ladi. Bir smenada brigada 300 ta shunday choyshab tikib topshirdi. Shu choyshablarni tikish uchun necha metr chit sarflandi?

342. Butun sonlar va o'nli kasrlarni yaxlit o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lishni taqqoslang:

$\begin{array}{r l} \widehat{86520} & 40 \\ - & 80 \\ \hline & \underline{2163} \\ & 65 \\ - & 40 \\ \hline & 252 \\ - & 240 \\ \hline & 120 \\ - & 120 \\ \hline & 0 \end{array}$	$\begin{array}{r l} \widehat{86,520} & 40 \\ - & 80 \\ \hline & \underline{2,163} \\ & 65 \\ - & 40 \\ \hline & 252 \\ - & 240 \\ \hline & 120 \\ - & 120 \\ \hline & 0 \end{array}$	$\begin{array}{r l} \widehat{24,900} & 50 \\ - & 200 \\ \hline & \underline{0,498} \\ & 490 \\ - & 450 \\ \hline & 400 \\ - & 400 \\ \hline & 0 \end{array}$
--	--	--

$\begin{array}{r l} \widehat{19,80} & 60 \\ - & 180 \\ \hline & \underline{0,33} \\ & 180 \\ - & 180 \\ \hline & 0 \end{array}$	$\begin{array}{r l} \widehat{13,400} & 200 \\ - & 1200 \\ \hline & \underline{0,067} \\ & 1400 \\ - & 1400 \\ \hline & 0 \end{array}$	$\begin{array}{r l} \widehat{17500,0} & 7000 \\ - & 14000 \\ \hline & \underline{2,5} \\ & 35000 \\ - & 35000 \\ \hline & 0 \end{array}$
---	---	--

343. Amalni tekshirish bilan bajaring:

$$\begin{array}{ccc} 45,6 : 40 & 8,16 : 20 & 945\,000 : 50 \\ 26,01 : 90 & 73,800 : 30 & 6,640 : 50 \end{array}$$

344.

$6,510 : 70$	$4,680 : 60$	$38,960 : 80$	$3,4500 : 30$
$22,80 : 60$	$39,500 : 50$	$81,720 : 90$	$52,200 : 60$
$2,920 : 40$	$16800 : 70$	$76,800 : 50$	$4,640 : 80$

345. Masalalar tuzing va yeching:

	Tezlik	Masofa	Vaqt
mashina	60 km/soat	2880 km	?
poyezd	100 km/soat	2880 km	?
samolyot	900 km/soat	2880 km	?

346. 4,5 kg pecheniy 20 ta paketga joylashtirildi. Har bir paketdagi pecheniyar og'irligi qancha?

347.

$259,68 : 60 + 3,240 : 20$	$6,3 : 9 \cdot 80$
$42,903 : 70 - 61,50 : 50$	$0,72 : 8 \cdot 70$
$2,596 : 80 - 8,130 : 30$	$0,056 : 7 \cdot 50$

348. Bir tup olxo'ri daraxtidan o'rta hisobda 123,4 kg meva terib olindi. 20 tup shunday daraxtdan qancha hosil yig'ib olindi?

349.

$781,40 : 40$	$8,600 : 20$	$0,98 \cdot 70$	$175,3 \cdot 80$
$159,060 : 30$	$1,01 : 5$	$64,09 \cdot 40$	$0,036 \cdot 30$

350.

$1 : 20$	$0,9 : 30$	$0,44 : 40$	$19 : 80$
$14 : 80$	$0,07 : 5$	$0,1 : 20$	$30 : 50$
$64 : 40$	$7,48 : 40$	$0,008 : 4$	$15 : 40$



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. 3,5 t sabzi 70 ta qopga teng joylandi. Bir qop sabzi massasini hisoblang.
2. Bir dona paketda 0,52 kg pryanik joylangan bo'lsa, 70 ta paketda necha kilogramm pryanik joylashtirilgan?
3. $15,43 \cdot 50$ | $0,035 \cdot 7000$ | $16,25 : 50$ | $0,9 : 300$
 $0,844 \cdot 600$ | $183,7 \cdot 100$ | $15 : 30$ | $2,7 : 50$
4. Javoblarni taqqoslang, $>$, $<$, $=$ ishoralaridan mosini qo'ying:
 $0,02$ $10 \dots 1 : 20$ $14 : 80 \dots 15 : 40$
 $3 : 40 \dots 0,3$ 400 $0,009$ $100 \dots 90 : 10$

IKKI XONALI SONGA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

- 351.** Butun va o'nli kasrlarni ikki xonali songa ko'paytirishni taqqoslang:

$\begin{array}{r} \times 2136 \\ 32 \\ \hline + 4272 \\ 6408 \\ \hline 68352 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 2,136 \\ 32 \\ \hline + 4272 \\ 6408 \\ \hline 68,352 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 21,36 \\ 32 \\ \hline + 4272 \\ 6408 \\ \hline 683,52 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 213,6 \\ 32 \\ \hline + 4272 \\ 6408 \\ \hline 6835,2 \end{array}$
---	---	---	---



O'nli kasrni ikki xonali songa ko'paytirish, butun sonni ikki xonali songa ko'paytirish kabi bajariladi, faqat o'nli kasrda verguldan keyingi sonlar nechta bo'lsa, ko'paytma javobida o'ngdan shuncha raqam hisoblanib belgi qo'yiladi.

352. Og'zaki yeching:

$0,2 \cdot 3$	$3,3 \cdot 3$	$0,12 \cdot 3$	$8,01 \cdot 2$	$12,3 \cdot 3$
$1,4 \cdot 2$	$1,5 \cdot 2$	$0,24 \cdot 2$	$5,02 \cdot 3$	$10,4 \cdot 2$
$1,003 \cdot 3$	$0,021 \cdot 4$	$1,006 \cdot 2$	$0,012 \cdot 4$	$5,32 \cdot 3$

353. Ko'paytmani toping:

$0,42 \cdot 12$	$0,5 \cdot 37$	$0,43 \cdot 69$	$20,325 \cdot 15$
$16,28 \cdot 25$	$12,14 \cdot 32$	$4,7 \cdot 42$	$0,427 \cdot 26$
$14,06 \cdot 36$	$65,08 \cdot 14$	$0,63 \cdot 81$	$1,104 \cdot 43$
$0,125 \cdot 18$	$1,8 \cdot 75$	$24,09 \cdot 45$	$11,04 \cdot 28$

354. Maydonning bo'yi 42 m, eni esa 18,5 m. Maydonning yuzini toping.

355. Og'zaki yeching:

$8,4 : 4$	$24,6 : 2$	$0,9 : 3$
$0,8 : 2$	$24,63 : 3$	$0,8 : 4$
$15,6 : 3$	$24,08 : 4$	$0,06 : 3$
$10,5 : 5$	$24,6 : 6$	$0,09 : 3$

356. Butun sonlar va o'nli kasrlarni ikki xonali songa bo'lish amalini solishtiring:

$\begin{array}{r} \overline{65844} \overline{) 36} \\ \underline{36} \\ 298 \\ \underline{288} \\ 104 \\ \underline{72} \\ 324 \\ \underline{324} \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overline{65,844} \overline{) 36} \\ \underline{36} \\ 298 \\ \underline{288} \\ 104 \\ \underline{72} \\ 324 \\ \underline{324} \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overline{658,44} \overline{) 36} \\ \underline{36} \\ 298 \\ \underline{288} \\ 104 \\ \underline{72} \\ 324 \\ \underline{324} \\ 0 \end{array}$
---	--	--

357. 1) O'nli kasrlarni ikki xonali songa bo'lish namunalari ko'rib chiqing. Amallarni bajarish tartibini tushuntiring:

$$4 : 16 = 0,25$$

```

  4 | 16
  - 0 | 0,25
    - 40
    - 32
    - 80
    - 80
    - 0
  
```

$$1,29 : 15 = 0,086$$

```

  1,29 | 15
  - 0 | 0,086
    - 12
    - 0
    - 129
    - 120
    - 90
    - 90
    - 0
  
```

2) Misollarni yeching:

$124,32 : 24$

$184,05 : 45$

$94,99 : 23$

$201,6 : 12$

$1729,6 : 47$

$499,2 : 16$

$286,02 : 35$

$9105,2 : 13$

$31,07 : 65$

$77,49 : 18$

$1336,8 : 12$

$442,8 : 72$

358. Bo'linmani toping:

$28,8 : 48$

$9,36 : 52$

$8,988 : 42$

$31,5 : 35$

$8,64 : 16$

$25,38 : 36$

$65,1 : 93$

$25,84 : 34$

$34,888 : 98$

$37,6 : 47$

$5,49 : 18$

$45,675 : 75$

359. Misollar tuzing va yeching:

Orttiring

31,5 ni 15 marta 21,4 ni 3,7 taga
8,64 ni 24 marta 9,72 ni 1,8 taga

Kamaytiring

1,062 ni 18 marta 1,035 ni 0,75 taga
9105,2 ni 15 marta 9,72 ni 18 taga

360. Misollarni yeching, bo'lish bilan tekshiring:

35,7 · 62	9,18 · 34	0,183 · 42	200,07 · 15
10,8 · 13	12,06 · 75	2,063 · 72	16,712 · 26
125,6 · 24	18,09 · 10	5,007 · 81	19,305 · 37
42,5 · 60	204,32 · 16	0,608 · 40	806,301 · 10

361. Bo'linmani toping:

83 : 2	1557,6 : 48	25,156 : 38
78 : 8	2139 : 35	7,84 : 56
154 : 25	8172 : 24	1,47 : 42
687 : 15	18213 : 26	1,062 : 18

362. Toshkentdan Nukusgacha masofa 1255 km dan iborat bo'lib, avtobus soatiga 50 km tezlik bilan yo'lni bosib o'tdi. Avtobus ushbu masofani necha soatda bosib o'tadi?

363. Birinchi poyezd 8 soatda 564 km, ikkinchi poyezd esa 10 soatda 684 km yo'lni bosib o'tdi. Qaysi poyezd tezligi ortiq va qanchaga ortiq?

364. Yengil mashina 8 soatda 436,8 km yo'lni, yuk mashinasi esa xuddi shu vaqtda 327,2 km yo'lni bosib o'tdi. Yengil mashina tezligi qanchaga ortiq?

365. $7,173 \cdot 15 - 14,07$ $(12,3 - 6,75) \cdot 14$
 $43,79 \cdot 26 - 123,08$ $(72,3 + 29,063) \cdot 27$
 $18,464 \cdot 17 + 89,75$ $(86,8 - 38,129) \cdot 50$

366. Misollar tuzing va amallarni bajaring:

- 1) 135,4 va 49,7 sonlari ayirmasini 13 marta orttiring.
- 2) 405,006 va 109,074 sonlari yig'indisini 100 marta kamaytiring.
- 3) 73,08 va 9,75 sonlari yig'indisini 36 ga ko'paytiring.

367. Misollarni yeching:

$(94,6 - 77,8) : 25$	$2407,68 : 32$
$(102,32 - 29,42) : 18$	$681,66 : 21$
$(81,06 + 0,7 + 151,34) : 50$	$1191,6 : 60$
$(0,304 + 12,72 + 28,106) : 100$	$740,25 : 45$

368. Masalalar tuzing va yeching:

I ekin maydoni	38 ga – 923,4 sr	1 ga – ? sr
II ekin maydoni	27 ga – 772,2 sr	1 ga – ? sr
III ekin maydoni	30 ga – 825 sr	1 ga – ? sr

369. Misollar tuzing va yeching:

- 1) 547,2 sonini 2 marta kamaytiring, bo'linmani 10 marta orttiring.
- 2) 250,6 sonini 35 ga bo'ling, bo'linmani 13 ga ko'paytiring.
- 3) 1627,2 sonini 18 marta kamaytiring, bo'linmani 7 ga ko'paytiring.
- 4) 8116,2 sonini 27 marta kamaytiring, bo'linmani 100 marta orttiring.

370. Bir xil quvvatli traktor yordamida 247,05 ga yer haydaldi. Birinchi traktor 15 kun, ikkinchisi 12 kun ishladi. Har bir traktor necha gektar yer haydadi?

371. Har bir sigirga 5,3 t, har bir buzoqqa 2,5 tonnadan hisoblab, qish mavsumi uchun 375 ta sigir va 245 ta buzoqqa yem-xashak tayyorlandi. Hammasi bo'lib necha tonna yem-xashak tayyorlanishi kerak?

372. Misollarni yeching:

$$(136,782 - 97,33) : 8$$

$$(73,8 + 14,27) : 100$$

$$(301,4 - 256,78) \cdot 19$$

$$(200,5 - 34,79) \cdot 4$$

$$(94,47 + 29,058) + 6$$

$$(0,08 + 135,705) \cdot 5$$

$$(17,5 - 9,126) \cdot 28$$

$$(15,003 - 9,46) \cdot 36$$

373. Misollar tuzing va yeching:


1) 18,3 soniga 24,537 va 3 sonlari bo'linmasini qo'shing.

2) 4,25 va 14 sonlari ko'paytmasini 12 marta orttiring.

3) 20,5 va 8,128 sonlari ayirmasini 4 marta kamaytiring.

4) 5,639 va 17,8 sonlari yig'indisini 17 marta orttiring.

374. Qisqa shart asosida masala tuzing:



375. Ikki yuk mashinasiga 7,5 t yuk ortildi. Agar ikkinchi mashinadagi yuk ikki baravar og'ir bo'lsa, har bir mashinaga ortilgan yuk massasini hisoblang.

376. Yer uchastkasining maydoni 62 ga. Yer uchastkasining 5 qismi turar joylarga, 3 qismi ko'kalamzorlashtirishga, 2 qismi sport maydoniga ajratildi. Sport maydoniga qaraganda turar joylarga necha gektar ortiq yer ajratildi?

377. $1027,9 : 38 \cdot 14$

$$20,05 \cdot 42 : 25$$

$$391,17 : 65 \cdot 15$$

$$6,975 \cdot 14 : 18$$

$$222 : 15 \cdot 24$$

$$800,6 \cdot 35 : 40$$

$$1332,66 : 38 \cdot 70$$

$$24,3 \cdot 48 : 16$$

378. Misollar tuzing va ularni yeching:

:
4487,2 va 79
4267,35 va 87
767,03 va 95
1923,84 va 64

×
24 va 70,8
72 va 4,97
5,004 va 38
300,6 va 45

379. Misollarni yeching:

$0,75 \cdot 28$

$2451 : 60$

$17,5 : 100 \cdot 1000$

$0,736 \cdot 45$

$3186 : 45$

$53,027 \cdot 100 : 10$

$0,9 \cdot 84$

$15,44 : 16$

$128,3 : 100 \cdot 1000$

$0,007 \cdot 62$

$12,69 : 50$

$567,18 \cdot 100 : 1000$

380. Fermer bir gektar yerdan o'rtta hisobda 4,5 t paxta terib oldi. 24 gektar yerdan qancha paxta terib olindi?

381. Tegirmonda 100 kg bug'doydan 80 kg un ortildi. Har kuni 48t un ishlab chiqish uchun qancha bug'doy kerak bo'ladi?

382. Yoz davomida bir dona dala sichqoni o'rtta hisobda 0,99 kg bug'doyni yeb ketadi. Boyqush esa yoz davomida 1000 ta sichqonni ovlab yeydi. 10 ta boyqush yoz bo'yi necha kg bug'doyni saqlab qoladi?

383. Misollarni yeching:

$12,3 \cdot 47 - 13,787$

$(30,1 - 24,846) \cdot 18 + 14,207$

$$13,8 \cdot 42 + 453 \cdot 14 - 189,6$$

$$(73,8 - 29,91) - 1,06 \cdot 10$$

$$(147,01 - 29,645) - 9,9 \cdot 10 + 1$$

384. Amallarni bajaring:

$3668 : 35 \cdot 100$	$708,6 : 100 \cdot 32$
$973,4 : 12 \cdot 1000$	$30,6 : 10 \cdot 54$
$10319,7 : 20 \cdot 100$	$0,8 : 100 \cdot 39$
$57,6 : 48 \cdot 10$	$126 : 10 \cdot 40$

385. Misollarni yeching, javoblar to'g'riligini ko'paytirish bilan tekshiring:

a) $9,86 : 58$	$6,9 : 50$	$10,2 : 60$
$72,8 : 28$	$36 : 72$	$11,04 : 23$
b) $6,9 \cdot 46$	$54 \cdot 12,3$	$11,25 \cdot 47$
$0,082 \cdot 65$	$12,7 \cdot 80$	$3,4 \cdot 62$



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

- Avtomobilchi 18 kun yo'l yurib, 2880 km yo'lni bosib o'tdi. Avtomobilchining 8 kun davomida bosib o'tgan yo'lini hisoblang.
- 2,4 metr chitdan 3 ta yostiq jildi tikildi. 10 ta yostiq jildi uchun necha metr chit kerak bo'ladi?
- | | | |
|------------------|-----------------|-------------------|
| $24,936 : 24$ | $24,8 \cdot 35$ | $2803,92 : 56$ |
| $0,748 \cdot 18$ | $196,48 : 64$ | $12,703 \cdot 26$ |
- | | | |
|------------------|------------------|-------------------|
| $23,28 : 12$ | $614,7 : 18$ | $35,6 : 10$ |
| $52,08 \cdot 14$ | $0,543 \cdot 23$ | $6,308 \cdot 100$ |
- $(79,389 + 390,049) : 34$ $40,158 : 23 - 0,073 \cdot 13$

O'LGHASHDA HOSIL BO'LGAN SONLARNI O'NLI KASR SHAKLIDA IFODALASH

386. 1) Bir detsimetr necha santimetr?

Yoziq: $1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$

Bir santimetr detsimetrning qaysi bo'lagini tashkil etadi?

Yoziq: $1 \text{ sm} = \frac{1}{10} \text{ dm}$ bo'ladi. U maxrajsiz quyidagicha

yoziq: $\frac{1}{10} \text{ dm} = 0,1 \text{ dm}$.

2) Namuna asosida jadval tuzing:

1 dm = 10 sm	1 sm = 0,1 dm
1 sm = ... mm	1 mm = ... sm
1 m = ... dm	1 dm = ... m
1 t = ... sr	1 sr = ... t

1 sm – detsimetrning qaysi bo'lagi?

1 mm – santimetrning qaysi bo'lagi?

1 dm – metrning qaysi bo'lagi?

1 sr – tonnaning qaysi bo'lagi?

387. Yirikroq o'lchov birliklarida ifodalang. Namunaga ko'ra o'nli kasr shaklida yoziq:

3 sm 5 mm = 3,5 sm

7 mm = 0,7 sm

7 m 3 dm = ... m

6 sr = ... t

9 dm 4 sm = ... dm

5 dm = ... m

12 t 7 sr = ... t

8 sm = ... dm

388. Bir metr necha santimetr?

Yo'zing: $1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$. 1 sm metrning qaysi bo'lagini tashkil etadi? $1 \text{ sm} = \frac{1}{100} \text{ m}$. Uni maxrajsiz quyidagi

shaklda yozamiz: $\frac{1}{100} \text{ m} = 0,001 \text{ m}$.

2) Namuna asosida jadval tuzing:

1 m = 100 sm	1 sm = 0,01 m
1 sr = ... kg	1 mm = ... sm
1 so'm = ... tiyin	1 tiyin = ... so'm

1 sm – metrning qaysi bo'lagi?

1 kg – sentnerning qaysi bo'lagi?

1 tiyin – so'mning qaysi bo'lagi?

389. Yirikroq o'lchov birliklarida ifodalang. Namunaga ko'ra o'nli kasr ko'rinishida yo'zing:

5 m 6 sm = 5,06 m

32 kg = 0,32 sr

16 sr 24 kg = ... sr

68 sm = ... m

9 so'm 3 tiyin = ... som

72 tiyin = ... so'm

8 tiyin = 0,08 so'm

7 kg = ... sr

3 sm = ... m

Barcha holatlarda yirik va mayda o'lchov birliklarida qanday o'zgarish bo'ldi? Verguldan so'ng nechta xona birligi bor?

390. O'nli kasr ko'rinishida yozing:

$$8 \text{ m } 16 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$32 \text{ so'm } 35 \text{ tiyin} = \dots \text{ so'm}$$

$$3 \text{ sr } 9 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$7 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$72 \text{ tiyin} = \dots \text{ so'm}$$

$$8 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$5 \text{ sr } 12 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$63 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$40 \text{ so'm } 5 \text{ tiyin} = \dots \text{ so'm}$$

$$45 \text{ kg} = \dots \text{ sr}$$

$$13 \text{ m } 2 \text{ sm} = \dots \text{ m}$$

$$9 \text{ tiyin} = \dots \text{ so'm}$$

391. 1) 1 kilometr necha metr? Yozing: $1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$. 1 metr kilometrning qaysi qismini tashkil etadi?

Yozing: $1 \text{ m} = \frac{1}{1000} \text{ km}$ ni maxrajsiz yozsak, o'nli kasr ko'rinishda $\frac{1}{1000} \text{ km} = 0,001 \text{ km}$ shaklida yoziladi.

2) Namuna asosida jadval tuzing:

1 km = 1000 m	1 m = 0,001 km
1 m = ... mm	1 mm = ... m
1 t = ... kg	1 kg = ... m
1 kg = ... g	1 g = ... kg

1 m – kilometrning qanday qismi?

1 mm – metrning qanday qismi?

1 kg – tonnaning qanday bo'lagi?

1 g – kilogrammning qanday bo'lagi?

392. Yirikroq o'lchov birliklarida yozing:

$$3 \text{ m } 207 \text{ mm} = 3,207 \text{ m}$$

$$4 \text{ kg } 15 \text{ g} = \dots \text{ kg}$$

$$18 \text{ t } 6 \text{ kg} = \dots \text{ t}$$

$$403 \text{ g} = 0,403 \text{ kg}$$

$$913 \text{ kg} = \dots$$

$$19 \text{ mm} = \dots$$

$15 \text{ kg} = 0,015 \text{ t}$

$3 \text{ mm} = 0,003 \text{ dm}$

$27 \text{ mm} = \dots \text{ m}$

$5 \text{ kg} = \dots$

$9 \text{ g} = \dots \text{ kg}$

$7 \text{ g} = \dots$

Barcha holatlarda yirik va mayda o'lchov birliklarida qanday o'zgarish bo'ldi? Verguldan so'ng necha xona birligi bor?

393. O'nli kasr shaklida yozing. Hosil bo'lgan kasr sonlarni o'qing:

$5 \text{ kg } 163 \text{ g} = \dots$

$15 \text{ km } 325 \text{ m} = \dots$

$7 \text{ mm} = \dots$

$45 \text{ t } 35 \text{ kg} = \dots$

$725 \text{ g} = \dots$

$8 \text{ km } 32 \text{ m} = \dots$

$608 \text{ mm} = \dots$

$538 \text{ kg} = \dots$

$78 \text{ g} = \dots$

$29 \text{ km } 6 \text{ m} = \dots$

$4 \text{ g} = \dots$

$279 \text{ m} = \dots$

$15 \text{ m } 3 \text{ mm} = \dots$

$1 \text{ t } 379 \text{ kg} = \dots$

$538 \text{ kg} = \dots$

394. Sonlarni o'nli kasr shaklida yozing:

$5 \text{ sm } 2 \text{ mm} = \dots$

$1 \text{ t } 3 \text{ sr} = \dots$

$5 \text{ km } 623 \text{ m} = \dots$

$9 \text{ m } 3 \text{ sm} = \dots$

$5 \text{ sr} = \dots$

$5 \text{ sr } 23 \text{ kg} = \dots$

$9 \text{ m } 4 \text{ mm} = \dots$

$13 \text{ t } 8 \text{ sr} = \dots$

$9 \text{ kg} = \dots$

$5 \text{ kg } 342 \text{ g} = \dots$

$6 \text{ mm} = \dots$

$157 \text{ kg} = \dots$

O'NLI KASRLARNI BUTUN SONLAR BILAN IFODALANISHI

395. 1)

$0,1 \text{ m} = 1 \text{ dm}$

$0,1 \text{ dm} = 1 \dots$

$0,1 \text{ sm} = 1 \dots$

$0,1 \text{ m} = 1 \dots$



Metrning o'ndan bir ulushi – detsimetr.

Detsimetrning o'ndan bir ulushi – ...

Santimetrning o'ndan bir ulushi – ...

Tonnaning o'ndan bir ulushi – ...

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlar shaklida yozing:

$$3,2 \text{ m} = 3 \text{ m } 2 \text{ dm}$$

$$0,2 \text{ sm} = 2 \text{ mm}$$

$$6,3 \text{ m} = \dots$$

$$4,8 \text{ sm} = \dots$$

$$0,9 \text{ m} = \dots$$

$$0,6 \text{ sm} = \dots$$

$$13,5 \text{ t} = 13 \text{ t } 5 \text{ sr}$$

$$20,7 \text{ t} = \dots$$

$$0,3 \text{ t} = \dots$$

396. 1)

$$0,01 \text{ m} = 1 \text{ sm}$$

$$0,01 \text{ so'm} = 1 \dots$$

$$0,01 \text{ sr} = 1 \dots$$



Metrning yuzadan bir ulushi – santimetr.

So'mning yuzdan bir ulushi – ...

Sentnerning yuzdan bir ulushi – ...

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlar shaklida yozing:

$$7,02 \text{ m} = 7 \text{ m } 2 \text{ sm}$$

$$6,48 \text{ m} = \dots$$

$$0,03 \text{ m} = \dots$$

$$0,27 \text{ m} = \dots$$

$$10,62 \text{ so'm} = 10 \text{ so'm } 62 \text{ tiyin}$$

$$3,26 \text{ so'm} = \dots$$

$$0,78 \text{ so'm} = \dots$$

$$15,09 \text{ so'm} = \dots$$

$$0,03 \text{ sr} = 3 \text{ kg}$$

$$42,74 \text{ sr} =$$

$$8,07 \text{ sr} =$$

$$0,68 \text{ sr} =$$

397. 1) **0,001 m = 1 mm**

$$0,001 \text{ km} = 1 \dots$$

$$0,001 \text{ m} = 1 \dots$$

$$0,001 \text{ kg} = 1 \dots$$



Metarning mingdan bir ulushi – millimetr.

Kilometrning mingdan bir ulushi – ...

Tonnaning mingdan bir ulushi – ...

Kilogrammning mingdan bir ulushi – ...

2) Namuna asosida o'nli kasrlarni butun sonlarga aylantiring:

$$3,187 \text{ km} = 3 \text{ km } 187 \text{ sm}$$

$$4,026 \text{ km} = \dots$$

$$9,007 \text{ m} = \dots$$

$$0,195 \text{ m} = \dots$$

$$0,205 \text{ km} = 205 \text{ m}$$

$$16,017 \text{ t} = \dots$$

$$0,008 \text{ kg} = \dots$$

$$3,678 \text{ m} = \dots$$

$$0,006 \text{ km} = 6 \text{ m}$$

$$7,049 \text{ kg} =$$

$$5,697 \text{ kg} =$$

$$0,072 \text{ m} =$$

398. 1) O'nli kasrlarni butun sonlar bilan almashtiring:

$$3,5 \text{ m} = ? \text{ m} \dots \text{ sm}$$

$$3,5 \text{ m} = 3,50 \text{ m} = 3 \text{ m} 50 \text{ sm}$$

2,32 m; 0,78 m; 1,4 m; 0,9 m; 0,07 m; 6,07 so'm;
12,3 so'm; 0,8 so'm; 0,48 so'm; 100,6 so'm; 7,13 sr;
9,05 sr; 10,9 sr; 0,07 sr; 0,8 sr.

2) $7,3 \text{ km} = \dots \text{ km} \dots \text{ sm}$

$$7,3 \text{ km} = 7,300 \text{ km} = 7 \text{ km} 300 \text{ sm}$$

6,128 km;	12,7 km;	0,14 km;	5,06 km;
9,6 km;	9,273 kg;	0,687 kg;	3,8 kg;
12,09 kg;	0,007 kg;	3,405 m;	4,61 m;
0,209 m;	5,6 m;	0,004 m;	8,42 m;
12,137 m;	9,4 m;	0,007 t;	0,076 kg.

3) O'nli kasrlarni butun sonlar bilan almashtiring:

$$8,7 \text{ sm} = \dots \text{ sm} \dots \text{ mm}$$

16,3 sm;	0,9 sm;	8,1 sm;	205,8 sm;
3,1 m;	18,2 m;	0,7 m;	0,5 m;
3,4 dm;	0,6 dm;	12,3 dm;	0,2 dm.

399. Masalalar tuzing va ularni yeching. O'qli kasrlarni butun sonlarga aylantiring:

1)

	Bo'yi	Massasi
Afrika fili	0,004 km	7,5 t
Hind fili	2,7 m	4 t
Jirafa	5,8 m	7,5 sr

2)

	Uzunligi	Massasi
Oq ayiq	0,003 km	1000 kg
Qo'ng'ir ayiq	2,5 m	0,75 t
Yo'lbars	2,9 m	2,7 sr

**KATTALIK O'LCHOV BIRLIKLARI
VA O'qli KASRLAR USTIDA ARIFMETIK AMALLAR**

400. Butun sonlarni o'qli kasrlarga aylantiring va amallarni bajaring:

Namuna:

82 m 30 sm + 78 sm	3 t 17 kg – 209 kg
82,30 m	3,017 m
+ 0,78 m	– 0,209 m
83,08 m	2,808 m

56 kg 273 g – 38 kg 89 g

15 m – 8 m 12 sm

30 sr 20 kg + 86 kg

60 kg – 38 kg 29 g

$$15 \text{ t } 1 \text{ kg} - 275 \text{ kg}$$

$$40 \text{ km} - 36 \text{ m}$$

$$46 \text{ kg } 180 \text{ g} + 5 \text{ kg } 98 \text{ g}$$

$$12 \text{ kg } 35 \text{ g} + 3 \text{ kg } 695 \text{ g}$$

401. Bir yer uchastkasidan 80,5 t lavlagi, ikkinchi yer uchastkasidan unga qaraganda 37,08 t ko'p lavlagi, uchinchi yer uchastkasidan esa I va II yer uchastkasidan yig'ib olingan lavlagi massasiga teng lavlagi yig'ib olindi. III yer uchastkasidan necha tonna lavlagi yig'ib olindi? Javobini butun songa aylantiring.

402. O'nli kasrlarga aylantiring va amallarni bajaring:

$$13 \text{ m } 2 \text{ sm} + 86 \text{ m } 97 \text{ sm}$$

$$16 \text{ t } 2 \text{ kg} + 20 \text{ t } 8 \text{ kg}$$

$$5 \text{ m } 4 \text{ sm} + 18 \text{ m } 97 \text{ sm}$$

$$5 \text{ sr } 3 \text{ kg} + 27 \text{ sr } 9 \text{ kg}$$

$$563 \text{ g} + 2 \text{ kg } 17 \text{ g}$$

$$6 \text{ m } 72 \text{ sm} + 8 \text{ m } 29 \text{ sm}$$

403. Neftni qayta ishlash korxonasiga I kuni 40,86 t neft, II kuni unga qaraganda 17,3 t ko'p neft, III kuni esa birinchi va ikkinchi kunlari kelib tushgan neftga qaraganda 4,007 t ko'p neft kelib tushdi. III kuni korxonaga qancha neft kelib tushgan. Masalani oldingi masala bilan solishtiring.

404. Kattalik o'lchov birliklari bilan kelgan sonlarni o'nlik kasrlarga almashtiring:

$$15 \text{ m } 63 \text{ sm} + 26 \text{ m } 3 \text{ sm} + 48 \text{ sm}$$

$$53 \text{ sm} - 9 \text{ mm} + 28 \text{ sm } 3 \text{ mm}$$

$$12 \text{ t} - 6 \text{ t } 237 \text{ kg} - 968 \text{ kg}$$

$$10 \text{ km} - 3 \text{ km } 12 \text{ m} + 987 \text{ m}$$

$$15 \text{ sr} + 78 \text{ kg} + 9 \text{ sr } 29 \text{ kg}$$

$$90 \text{ t} - 90 \text{ kg} + 10 \text{ t } 632 \text{ kg}$$

$$600 \text{ m} - 60 \text{ sm} + 210 \text{ m} \ 93 \text{ sm}$$

$$45 \text{ m} \ 28 \text{ sm} + 93 \text{ sm} + 5 \text{ m} \ 8 \text{ sm}$$

405. Masalalar tuzing, taqqoslang va yeching. Sonlarni o'qli kasr shaklida yozing:

1) Hammasi 960 t

I – 57 t 900 kg		}	
II – 17 t 140 kg kam			
III – 8 t 500 kg ko'p			
IV – qolgan sabzavotlar			

2) Hammasi 960 t

I – 57 t 900 kg		}	
II – 17 t 140 kg kam			
III – shuncha			
IV – qolgan sabzavotlar			

3) Hammasi 960 t

I – 57 t 900 kg		}	
II – 17 t 140 kg kam			
III – 8 t 500 kg ko'p			
IV – qolgan sabzavotlar			

406. Sonlarni o'qli kasrga aylantirib, misollarni yeching:

1) $16 \text{ km} \ 27 \text{ m} + 58 \text{ km} \ 909 \text{ m} + 645 \text{ m}$

$$4 \text{ t} \ 900 \text{ kg} + 17 \text{ t} \ 890 \text{ kg} + 4 \text{ t} \ 13 \text{ kg}$$

$$86 \text{ sm} + 360 \text{ m} \ 9 \text{ sm} + 648 \text{ m} \ 92 \text{ sm}$$

$$13 \text{ sr} \ 96 \text{ kg} + 24 \text{ sr} + 142 \text{ sr} \ 8 \text{ kg}$$

$$117 \text{ t} \ 1 \text{ kg} - 92 \text{ kg}$$

$$40 \text{ kg} - 172 \text{ g}$$

$$50 \text{ t} - 9 \text{ sr}$$

$$75 \text{ m} \ 8 \text{ dm} - 16 \text{ m} \ 9 \text{ dm}$$

2) $100 \text{ m } 44 \text{ mm} + (100 \text{ m} - 6 \text{ m } 6 \text{ mm})$
 $12 \text{ m } 4 \text{ dm} + (90 \text{ m} - 8 \text{ dm})$
 $32 \text{ kg } 1 \text{ g} + 17 \text{ kg } 200 \text{ g} + 29 \text{ g}$
 $162 \text{ km } 13 \text{ m} + 72 \text{ km } 9 \text{ m} + 483 \text{ m}$
 $35 \text{ km} - (18 \text{ km} - 2 \text{ km } 360 \text{ m})$
 $200 \text{ t} - (172 \text{ t} - 3 \text{ t } 6 \text{ kg})$

3) $82 \text{ sm} + 4 \text{ m } 3 \text{ sm} + 19 \text{ m}$
 $31 \text{ kg} + 15 \text{ sr } 7 \text{ kg} + 88 \text{ kg}$
 $30 \text{ sm } 1 \text{ mm} + 9 \text{ mm} + 62 \text{ sm}$
 $10 \text{ dm } 1 \text{ sm} - 7 \text{ sm} - 6 \text{ dm } 9 \text{ sm}$
 $8 \text{ km } 13 \text{ m} - 68 \text{ m} - 146 \text{ m}$
 $18 \text{ m } 2 \text{ sm} + 46 \text{ sm} - 9 \text{ m } 24 \text{ sm}.$



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Sonlarni o'nli kasr shaklida yozing:

$52 \text{ m } 14 \text{ sm} - 49 \text{ m } 83 \text{ sm}$	$80 \text{ t} - 17 \text{ t } 2 \text{ kg}$
$4 \text{ sr } 96 \text{ kg} + 18 \text{ sr } 9 \text{ kg}$	$35 \text{ t } 1 \text{ sr} - 8 \text{ sr}$
$35 \text{ tiyin} + 30 \text{ so'm} + 7 \text{ tiyin}$	
$14 \text{ km } 26 \text{ m} - 9 \text{ km } 93 \text{ m}$	
$162 \text{ sm } 4 \text{ mm} + 279 \text{ sm } 7 \text{ mm}$	
$8 \text{ m } 14 \text{ mm} + 249 \text{ m } 96 \text{ mm}$	

2. Butun sonlar shaklida yozing:

$17,82 \text{ m}$	$13,1 \text{ so'm}$	$50,26 \text{ sr}$
$6,381 \text{ km}$	$20,3 \text{ sm}$	$0,4 \text{ m}$
$50,142 \text{ t}$	$0,384 \text{ kg}$	$0,286 \text{ km}$

3. Sonlarni o'qli kasr shaklida yozing:

a) Bir to'p gazlamadan 3 m 10 sm qirqib olinib, to'pda 18 m 80 sm qoldi. To'pda necha metr gazlama bo'lgan?

b) Qish mavsumi uchun 80 kg 500 g pomidor tuzlandi. Yangi yil uchun 47 kg 800 g qoldi. Yangi yilgacha necha kilogramm pomidor ishlatildi?

O'LCHASHDA HOSIL BO'LGAN SONLARNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

407. O'qli kasrlarni 10, 100, 1000 ga ko'paytirish va bo'lish qoidalarini eslang:

1) $3,7 \cdot 10$	$9,3 \cdot 100$	$6,14 \cdot 1000$
$0,8 \cdot 10$	$93,7 : 100$	$270 : 1000$
$16,3 : 10$	$8,03 \cdot 100$	$5,6 \cdot 1000$
$9,4 : 10$	$0,9 : 100$	$21 : 1000$

2) Kattaliklarni o'lchashda hosil bo'lgan sonlarni o'qli kasr shaklida yozib, misollarni yeching:

8 m 7 sm $\cdot 10$	260 m $: 1000$
5 t 237 kg $\cdot 100$	3 m 17 mm $\cdot 100$
3 sm 2 mm $\cdot 10$	5 sr 3 kg $\cdot 10$

408. 10, 100 kishilik osh va sho'rvani tayyorlash uchun sarflanadigan mahsulotlarni hisoblang. Sonlarni o'qli kasr shaklida yozing:

- 1) Bir kishilik osh uchun: 100 g guruch, 50 g go'sht, 25 g yog', 50 g sabzi, 5 g piyoz kerak bo'ladi.
- 2) Bir kishilik borsh uchun: 100 g mol go'shti, 80 g lavlagi, 50 g karam, 10 g sabzi, 5 g piyoz, 5 g tomat, 500 g suv kerak bo'ladi.

409. Sonlarni o'nli kasrga aylantiring va misollarni yeching:

$25 \text{ sr } 41 \text{ kg} \cdot 9$	$546 \text{ m } 75 \text{ sm} : 9$	$3 \text{ km } 79 \text{ m} \cdot 5$
$67 \text{ m } 18 \text{ sm} \cdot 8$	$110 \text{ kg } 456 \text{ g} : 8$	$28 \text{ kg } 7 \text{ g} \cdot 6$
$3 \text{ t } 68 \text{ kg} \cdot 7$	$5458 \text{ sm } 8 \text{ mm} : 6$	$7 \text{ m } 30 \text{ sm} : 8$

410. O'nli kasrga aylantirib, bo'lishni bajaring:

$1) 7 \text{ km } 50 \text{ m} : 3$	$17 \text{ m } 5 \text{ sm} : 5$	$3 \text{ t } 64 \text{ kg} : 8$
$5 \text{ kg } 420 \text{ g} : 4$	$5 \text{ sr } 64 \text{ kg} : 3$	$38 \text{ km } 50 \text{ m} : 5$
$7 \text{ t } 20 \text{ kg} : 4$	$13 \text{ t } 6 \text{ sr} : 4$	$11 \text{ sm } 9 \text{ mm} : 7$

$2) 7 \text{ km } 2 \text{ m} \cdot 9$	$35 \text{ m } 9 \text{ sm} \cdot 8$	$59 \text{ sr } 7 \text{ kg} \cdot 8$
$4 \text{ t } 49 \text{ kg} \cdot 20$	$5 \text{ m } 126 \text{ mm} \cdot 9$	$50 \text{ cm } 6 \text{ mm} \cdot 100$

411. Tegirmonga 4 ta yuk mashinada 12 t don keltirildi. Shunday mashinaning 15 tasida necha tonna don olib kelish mumkin, 60 tonna donni tashish uchun shunday yuk mashinadan nechta kerak?

412. Masala tuzing va uni yeching:

- I – 16 ta reys 2,86 t dan } ? t
- II – 25 ta reys 4,562 t dan

413. O'nli kasrga aylantiring va misollarni yeching:

- | | |
|---------------------|-------------------|
| 1) 44 km 220 m : 44 | 13 sm 8 mm · 23 |
| 31 m 70 kg : 65 | 208 kg 640 g : 64 |
| 25 m 6 sm · 34 | 91 kg 5 g : 15 |
| 8 sr 4 kg : 92 | 13 m 328 mm : 28 |
| 19 dm 1 sm · 39 | 1494 t 6 sr : 94 |
| 2) 8 km 29 m · 12 | 39 kg 600 g : 80 |
| 137 km 844 m : 14 | 16 m 14 sm · 28 |
| 9 m 300 mm : 60 | 1224 dm 6 sm : 78 |
| 9 sr 96 kg · 36 | 88 sm 4 mm · 26 |
| 342 m 152 kg : 19 | 1 t 7 kg · 76 |

414. Omborga 120 kg apelsin, mandarin va banan keltirildi. Uning 30 kg banan, 30 kg apelsin, mandarin esa har biri 10 kg dan yashiklarda sotish uchun jo'natildi. Necha yashik mandarin sotish uchun jo'natildi?

415. O'nli kasrga aylantirib misollarni yeching:

- 1) 9 kg 408 g : 48 + 5 kg 49 g : 99
 7 m 21 mm : 17 - 4 m 2 mm : 23
 8 sr 88 kg : 24 - 28 sr 80 kg : 96
 75 sm 600 m : 70 - 17 km 864 m : 58
- 2) 548 m 29 sm + 14 m 2 sm + 37 m 5 sm
 86 m 9 sm + 178 m 87 sm + 305 m 9 sm
 17 m 28 sm · 37 - 147 m 20 sm : 92
 (72 km 878 m : 26 - 35 km 720 m : 38) - 1 km 248 m

SONDAN O'NLI KASRNI TOPISH

60 kg, 80 sm, 200 kg ning $\frac{1}{10}$ qismini toping.

60 kg, 80 sm, 200 kg ning $\frac{3}{10}$ qismini toping.

500, 8 t, 6 m ning $\frac{1}{100}$ qismini toping.

5000, 8 t, 6 m ning $\frac{5}{100}$ qismini toping.

8 km, 3 m, 4000 mm ning $\frac{1}{1000}$ qismini toping.

8 km, 3 m, 4000 mm ning $\frac{8}{1000}$ qismini toping.

Sonning ixtiyoriy miqdordagi o'nlik, yuzlik, minglik ulushlari qanday topiladi?

416. 1) Oddiy kasrlarni o'nli kasr shaklida yozishni eslang:

$$\frac{1}{10} = 0,1;$$

$$\frac{3}{10} = 0,3;$$

$$\frac{1}{100} = \dots;$$

$$\frac{5}{100} = \dots;$$

$$\frac{1}{1000} = \dots;$$

$$\frac{8}{1000} = \dots$$

2) 43 sonining 0,1 qismini qanday topish mumkin?

43 sonining 0,3 qismini-chi?

$$43 : 10 = 4,3$$

$$43 : 10 \cdot 3 = 4,3 \cdot 3 = 12,9$$

$$\begin{array}{r} 4,3 \\ \times 3 \\ \hline 12,9 \end{array}$$

3) 400 m, 80 so'm, 5 sm ning 0,1 qismini;

400 m, 80 so'm, 5 sm ning 0,3 qismini.



Sonning bir nechta o'nliklarini topish uchun:

- 1) Sonning o'ndan bir qismini topish (sonning o'ng tomonidan birinchi raqamini vergul bilan ajratish);
- 2) Hosil bo'lgan sonni topish kerak bo'lgan o'nlik soniga ko'paytirish lozim.

417. Toshkentdan Chirchiq shahrigacha 60 km. Avtobus yo'lining 0,6 qismini bosib o'tdi. Avtobus qancha yo'l bosib o'tdi, u yana qancha yo'l yurishi kerak?

418. 43 sonining 0,01 qismini qanday topish mumkin?

$$43 : 100 = 0,43$$

43 sonining 0,07 qismini qanday topish mumkin?

$$43 : 100 \cdot 7 = 3,01$$

$$\begin{array}{r} 0,43 \\ \times \quad 7 \\ \hline 3,01 \end{array}$$



Sonning bir nechta yuzliklarini topish uchun:

- 1) Sonning yuzdan bir qismini topish (sonning o'ng tomonidan ikkita raqamini vergul bilan ajratish);
- 2) Hosil bo'lgan sonni topish kerak bo'lgan yuzlik soniga ko'paytirish lozim.

419. 1) 5600; 742 kg; 300 g ning 0,01 qismini toping.

2) 5600; 742 kg; 300 g ning 0,05 qismini toping.

3) 342 ning 0,09; 1436 ning 0,02; 72 ning 0,08 qismini toping.

- 420.** 1) Sonning mingdan bir qismini qanday topish mumkin?
263; 5 427; 800 ning 0,001 qismini toping.
- 2) Sonning bir nechta mingliklarini qanday topish mumkin?
304; 4 007; 98 ning 0,005 qismini toping.
- 421.** Bo'sh kataklar o'rniga tegishli sonlar yozing va o'nli kasrlarini toping:
- a) , , ning 0,001;
- b) , , ning 0,008;
- d) , , ning 0,4;
- e) , , ning 0,12.
- 422.** To'qimachilik korxonasida 12 840 m gazlama to'qildi. Gazlamaning 0,005 qismi yaroqsiz bo'lib chiqdi. Necha metr gazlama yaroqli va qanchasi yaroqsiz deb topildi?
- 423.** Hisoblang:
- | | | |
|-----------------|----------------|-----------------|
| 146 ning 0,2; | 158 ning 0,03; | 427 ning 0,009; |
| 31 kg ning 0,7; | 746 ning 0,04; | 2 t ning 0,008. |
- 424.** Maktabda 420 o'quvchidan 0,3 qismi boshlang'ich sinf o'quvchilari, 0,6 qismi V–VIII sinf o'quvchilari va qolgan qismi IX sinf o'quvchilaridir. Maktabda bitiruvchi sinf o'quvchilari nechta?
- 425.** Quyidagi sonlarning ulushlarini toping:
- 1) 54 kg, 17 m 2 dm ning 0,7 ulushini;
- 2) 1723, 1 156, 3 004 ning 0,25 ulushini;
- 3) 12 500, 3 700, 9 km ning 0,034 ulushini toping.

426. Masala tuzing va uni yeching:

Bor edi: I – 26,9 m dan 17 to'p }
 II – 31 m dan 24 to'p } 0,05 qismi ishlatildi.
 Qancha qoldi – ? m

427. Masala tuzing va uni yeching:

I – 57 t 900 kg ←
 II – 17 t 140 kg kam —
 III – 8 t 500 kg ko'p —
 IV – qolgan sabzavotlar

I – 275 sr }
 II – 325 sr ← } 0,2 qismi yem
 III – 50 sr ko'p — } uchun ishlatildi

 Qancha – ?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

- 16 kg ning 0,5 qismini, 180 m ning 0,02 qismini toping.
- O'nli kasrlarga aylantirib, misollarni yeching:
 $115 \text{ m } 8 \text{ sm} \cdot 9$ $120 \text{ sm } 6 \text{ mm} : 9$
 $4 \text{ kg } 49 \text{ g} \cdot 40$ $7 \text{ sr } 50 \text{ kg} : 50$
 $7 \text{ km } 2 \text{ m} \cdot 19$ $8 \text{ m } 88 \text{ sm} : 24$
- Bir bog'lam qog'oz 500 varaqdan iborat. Uning 0,1 qismi ishlatildi. Necha bet qog'oz ishlatildi? Bog'lamdagi qog'ozdan necha beti qoldi?



TAKRORLASH

428. Sonlarni o'qing va xona birliklariga ajrating:

586, 95, 4, 1206, 15675, 426801, 2672596.

429. Sonlarni cho'tga soling:

5, 68, 746, 2684, 59783, 846986, 100000,
127900, 2864250, 256456, 20000.

430. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:

256, 86, 9, 5967, 16854, 246475, 386,
2789, 29081, 364797.

431. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing:

24	2864	64845	54963	286743
86	643	2841	16975	128968
33	286	1999	99999	999999
45	347	9999	100101	21002

432. Sonlarni taqqoslang:

2906...2706	35576...35578
6314...123458	45963...54784
1268...346	28712...39645
3847...260	56483...38743

- 433.** Bo'sh xonalarga mos qo'shiluvchini qo'yib, yig'indini toping:
 $400\,000 + 80\,000 + 1\,000 + 400 + 50 + 7 =$
 $800\,000 + 60\,000 + \dots + 300 + 20 + 2 =$
 $700\,000 + \dots + 4\,000 + 200 + \dots + 2 =$
 $300\,000 + 20\,000 + 1\,000 + \dots + 10 + \dots =$
- 434.** 2685 dan 2699 gacha, 1916 dan 1955 gacha, 56458 dan 56495 gacha, 189451 dan 189481 gacha bo'lgan natural sonlar qatorini yozing.
- 435.** Sonlarni o'sib borish tartibida yozing:
